2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 221 (1820), 2026-yil 24-oktabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI “ROSATOM” KORPORATSIYASI BOSH DIREKTORINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-oktabr kuni “Rosatom” atom energiyasi bo‘yicha davlat korporatsiyasi bosh direktori Aleksey Lixachyovni qabul qildi.



Uchrashuvda mamlakatimizda ilk integratsiyalashgan atom elektr stansiyasini barpo etish loyihasini amalga oshirish hamda ilg‘or texnologiyalar va bilimlar asosida tegishli infratuzilmani rivojlantirish masalalari diqqat markazida bo‘ldi.

Birinchi reaktor binosi poydevorini qurish hamda atom elektr stansiyasini loyihalashtirish ishlari izchil davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Sohada malakali kadrlarni tayyorlash, bunda, jumladan, “MMFI” milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkentdagi filiali hamda “Rosatom” kompaniyasi obyektlaridagi imkoniyatlardan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, bo‘lajak AES yaqinida energiya tejamkor uy-joylar, zamonaviy ta’lim, tibbiyot va sport muassasalari hamda aholi uchun qulay ijtimoiy infratuzilmaga ega atomchilar shaharchasini barpo etish borasidagi hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi.

O‘zA

“ELDRIDGE INDUSTRIES” KOMPANIYASI BILAN HAMKORLIK ISTIQBOLLARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Eldridge Industries” kompaniyasi hammuassisi, raisi va bosh direktori Todd Boelini qabul qildi.

Uchrashuvda AQSHning mazkur yetakchi korporatsiyasi bilan yirik kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Mamlakatimiz yetakchisi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Xususan, tog‘-kon sanoati, metallurgiya, qurilish sohalaridagi sheriklikni kengaytirish hamda shahar infratuzilmasiga raqamli yechimlarni joriy etish nazarda tutilmoqda.

Muzokaralar yakunida ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib olindi.

“Eldridge Industries” aktivlarni boshqarish, sug‘urta, ko‘chmas mulk, infratuzilma, texnologiyalar, sport va media sohalarida faoliyat yurituvchi AQSHning investitsiyaviy xolding kompaniyasidir. Boshqaruvida qiymati 75 milliard dollardan ziyod aktivlar mavjud.

O‘zA

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMI — DAVLAT SIYOSATI NATIJADORLIGINING BOSH MEZONI

Yangi O‘zbekistonda davlat boshqaruvi mazmuni tubdan o‘zgarmoqda. “Davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” qat’iy siyosiy tamoyili har bir idora va rahbar faoliyatining amaliy mezoniga aylanmoqda. Davlat organi faoliyati tayyorlangan hisobot yoki o‘tkazilgan yig‘ilish emas, odamlar hayotida yaratilgan qulaylik, hal etilgan muammo va ro‘yobga chiqqan manfaat bilan baholanmoqda.



Davlat boshqaruvida hujjat qabul qilish jarayonning boshlanishi, xolos. Uning siyosiy va huquqiy qiymati belgilangan vazifalar o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq bajarilib, xalq kutgan natijaga erishilgandagina namoyon bo‘ladi. Chunki har bir farmon va qaror ortida muayyan inson manfaati, hudud taraqqiyoti va mamlakat kelajagiga daxldor maqsad turadi.

Ana shu talab ijro intizomiga munosabatni ham o‘zgartirdi. Ilgari topshiriqlar ijrosi asosan hisobot va yozishmalar orqali nazorat qilingan bo‘lsa, bugun “Ijro.gov.uz” idoralararo yagona elektron tizimi topshiriq holati, mas’ul ijrochi, belgilangan muddat va erishilgan natijani real vaqt rejimida kuzatish imkonini bermoqda.

Biz uchun asosiy mezon topshiriqning tizimda “bajarildi” deb belgilanishi emas, uning ijrosi mazmunan to‘liq ta’minlangani va xalq hayotida qanday natija berganidir. Bu ijro intizomini ma’muriy nazoratdan davlat siyosatini ro‘yobga chiqaradigan strategik mexanizmga aylantirayotgan prinsipial yondashuvdir.

Davomi 3-betda



Munosabat

EL SHOD BO‘LSA, MAMLAKAT OBOD BO‘LAR

Bugun biz yangi davrga qadam qo‘ydik. Bu davr, avvalo, taraqqiyotning sur’ati har qachongidan ham baland ekani, odamlar tafakkuri kundan kunga o‘zgarib borayotgani bilan xarakterlanadi. Shuning barobarida, ayni kezda dunyoda kechayotgan murakkab va ziddiyatli vaziyat har vaqt, har bir ishda hushyor va ogoh bo‘lishni taqozo etayotir.

Shunday tahlikali sharoitda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqaro hamjamiyatni tinchlik-osoyishtalik yo‘lini tutishga, o‘zaro murosa-madoraga chorlayotgani, bu borada muhim tashabbuslarni ilgari surayotgani alohida ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi tufayli yangi O‘zbekiston taraqqiyotning yangi darajalariga yuksalib borayotir. So‘nggi o‘n yil davomida jamiyat hayotining barcha jabhalarida olib borilayotgan islohotlar mamlakatimizning taraqqiy etgan davlatlar safidan mustahkam o‘rin egallashini ta’minlamoqda. Eng ahamiyatlisi, ushbu islohotlarning natijasi yurtimizning har bir viloyatida, shahar-u qishloqlarda yaqqol sezilmoqda, xalqimiz qalbidagi ertangi kunga bo‘lgan ishonch tuyg‘usini tobora mustahkamlamoqda. Mamlakatimiz yetakchisining kuni kecha Qashqadaryo viloyatiga amalga oshirgan tashrifi ham buni tasdiqlaydi.

Davomi 5-betda

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI VA FAXRIYLARIGA

Hurmatli ichki ishlar organlari xodimlari!

Qadrli general va ofitserlar, serjant va safdorlar!

Muhtaram faxriylar!

Sizlarni O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tashkil etilganining 35 yilligi bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Ushbu qutlug‘ kunda xalqimiz osoyishtaligini ta’minlash, fuqarolarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish yo‘lidagi sadoqatli xizmatingiz uchun barchangizga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Albatta, yurtimizda o‘z farzandini maktabga kuzatayotgan ota-onaning xotirjamligi, mahallalarimizdagi osoyishta hayotni mustahkamlashda sizlarning kundalik fidokorona mehnatingiz va hissangiz borligini barchamiz yaxshi bilamiz.

Oddiy insonlarning sizga ishonch bilan murojaat qilishi va bundan ko‘ngli taskin topishi — sizning xizmatingizga berilgan eng yuksak bahodir.

O‘tgan o‘ttiz besh yil davomida tizimda katta tajriba to‘plandi, jasorat va sadoqat an’analari shakllandi. Bugungi avlod xodimlari bu an’analarni zamonaviy bilim va yondashuvlar asosida boyitib kelmoqda.

Joriy yilda mahallalarimizning qariyb yarmida jinoyat sodir etilmagani — ichki ishlar xodimlari, mahalla faollari va aholining hamkorlikdagi mehnati samarasidir. Endi bu tajribani kengaytirib, har bir mahallada xavfsiz muhit yaratish bo‘yicha ishlarimizni izchil davom ettirishimiz zarur.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish kengaymoqda. Kiberjinoyatlarni barvaqt aniqlash, ularning oldini olish va fuqarolarning mol-mulkini himoya qilish choralari kuchaytirilmoqda.

Giyohvandlik va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, ayniqsa, yoshlarimizni bu illatlar ta’siridan asrash muhim vazifamiz bo‘lib qolmoqda. Buning uchun zamonaviy bilim va puxta tayyorgarlik zarur. Shu bois, kadrlar tayyorlashda nazariyani amaliyot bilan bog‘lash, dual ta’limni rivojlantirish, mahalliy va xorijiy mutaxassislar tajribasidan foydalanishga katta ahamiyat bermoqdamiz.

Milliy yuksalish yo‘lidagi maqsadlarimiz ichki ishlar organlari oldiga ham yangi vazifalar qo‘ymoqda. Sizlardan jinoyatlarning oldini olishda tashabbuskorlik, xizmatda qat’iy intizom va halollik kutib qolaman.

“O‘zingni angla va o‘zgani qadrla” degan tamoyilga amal qilgan holda faoliyat olib borish ichki ishlar sohasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu — xodimning kasbiy sha’nini asrashi, qonunga qat’iy rioya etishi va har bir insonga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini anglatadi.

Sizga murojaat qilgan fuqaroni diqqat bilan tinglash, uning muammosini qonuniy hal etishga ko‘maklashish xalqning tizimga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Chunki odamlar bir xodimning muomalasi va xatti-harakatidan butun tizim haqida xulosa chiqaradi.

Bugungi kunda biz ilgari surayotgan “O‘z” g‘oyasi zamiridagi yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi sizlarning xizmatingizda ham yaqqol namoyon bo‘lishi kerak. Har bir xonadonning osoyishtaligini o‘z oilangiz tinchligidek asrash — “O‘zimning O‘zbekistonim” degan iftixor hissining amaliy ifodasiga aylanishi lozim.

Bugun tizim ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan faxriylarimizga alohida ehtirom bildiraman. Sizlarning hayotiy tajribangiz, o‘git va maslahatlaringiz yosh xodimlar uchun katta maktabdir.

Xizmatning tashvish va mas’uliyatini sizlar bilan birga baham ko‘rayotgan ota-onalaringiz, turmush o‘rtoqlaringiz va farzandlaringizga ham chin dildan rahmat aytaman. Ularning mehri, sabru qanoati va qo‘llab-quvvatlashi sizlarga albatta kuch-g‘ayrat bag‘ishlaydi.

El-yurt tinchligini himoya qilish yo‘lida halok bo‘lgan mard va fidoyi xodimlarimizning xotirasini chuqur hurmat bilan yod etamiz. Ularning jasoratini unutmaslik, oilalari va farzandlariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish — bundan buyon ham barchamizning insoniy burchimiz bo‘lib qoladi.

Sizlarni qutlug‘ bayramingiz bilan yana bir bor samimiy tabriklayman. Barchangizga mustahkam sog‘liq, xonadonlaringizga tinchlik va fayzu baraka, mas’uliyatli xizmatingizda muvaffaqiyatlar tilayman.

El-yurt osoyishtaligi yo‘lidagi xizmatingizning qadri doimo baland bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH XODIMLARNI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimiz ichki ishlar organlaridagi ko‘p yillik samarali xizmati, yurtimizda jamoat xavfsizligi, xalqimiz osoyishtaligini ta’minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga qo‘shgan munosib hissasi, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish yo‘lidagi ibratli faoliyati, o‘z burchini sharaf va mas’uliyat bilan ado etib, mardlik va jasorat namunasini ko‘rsatib kelayotgani, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash ishlaridagi faol ishtiroki, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining o‘ttiz besh yilligi munosabati bilan quyidagilar mukofotlansin:

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Maxmadkulov Dilshod Mavlanovich — Sirdaryo viloyati Xovos tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

“Mardlik” ordeni bilan

Namazov Timur Taxirovich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tezkor vakili

“Do‘stlik” ordeni bilan

Yesamuratova Nodira Sherdankulovna — Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tezkor vakili

Xen Vladimir Gennadyevich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Raqamli infratuzilma va axborot xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i

II darajali “Salomatlik” ordeni bilan

Karimova Irina Malikovna — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi “O‘zbekiston” sanatoriysi kardiologiya bo‘linmasi boshlig‘i

“Jasorat” medali bilan

Ziyatov Boxodir Umarovich — Qashqadaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati batalyoni bo‘linma komandiri

Kamilov Timur Yusupjanovich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi departament boshlig‘i o‘rinbosari

Mengnarov Utkirbek Yaxshibayevich — Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tezkor vakili

“Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan

Boysariyev Xusniddin Eshnazarovich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo‘shinlari harbiy qism nazoratchisi

Davomi 2-betda

Biz uchun eng oliy vazifa yurt tinchligini ko‘z qorachig‘idek asrash va huquq-tartibotni mustahkamlashdir. Eng oliy mukofot esa xalq ishonchi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 24-oktabr, 221-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

FARMONI

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH XODIMLARNI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

Gaziyev Mansurbek Mamarasulovich — Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari — jamoat xavfsizligi xizmati boshlig‘i

Djumanova Baxor Rustamovna — Toshkent viloyati Bekobod shahar ichki ishlar bo‘limi huzuridagi tergov bo‘limi katta tergovchisi

Miliyev Shuxrat Akmalovich — Toshkent shahar Yashnobod tumani bo‘yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i

Mirzamdamov Ozod Amanovich — Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi yo‘l-patrul xizmati inspektori

Raximov Xabibulla Shukrullayevich — Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi yo‘l-patrul xizmati katta inspektori

Suleymonov Elmurod Xasanboyevich — Namangan viloyati Chust tumani ichki ishlar bo‘limi mahalla huquq-tartibot maskani profilaktika bosh inspektori

Tolegenov Sharafatdin Nizamatdinovich — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi patrul-post xizmati batalyoni patrul-post xizmati inspektori

Xalimov Ulugbek Anvarovich — Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i

Xubbimov Nizom Rabbimovich — Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari — jamoat xavfsizligi xizmati boshlig‘i

Shadmanov Javlon Raxmatovich — Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i

Ermatov Sultonbek Sayidovich — Farg‘ona viloyati Quva tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Allanazarova Saltanat Eshdavlatovna — Surxondaryo viloyati Termiz shahar ichki ishlar boshqarmasi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektori

Bog‘bekova Dilnoza Shonazarovna — Xorazm viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazi boshlig‘i

Muxsinova Luiza Ramazonovna — Buxoro tumani ichki ishlar bo‘limi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektori

“Shuhrat” medali bilan

Axmedov Anvar Raxmatovich — Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i

Giyasova Nilufar Shasaitovna — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati boshlig‘i o‘rinbosari

Daujanov Artur Userbayevich — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani ichki ishlar bo‘limi 3-son ichki ishlar bo‘linmasi boshlig‘i

Mamasoliyev Elyor Tursunaliyevich — Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi ikkinchi mintaqaviy hudud bo‘yicha patrul-post xizmati otryadi komandiri

Normatov Baxtiyor Soatovich — Toshkent viloyati Zangiota tumani ichki ishlar boshqarmasi ekspert-kriminalistika bo‘limi katta eksperti

Pardayev Oybek Urinovich — Toshkent shahar Mirobod tumani bo‘yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi profilaktika katta inspektori

Raximxo‘jayev Rustam Nishonxo‘jayevich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kafedra boshlig‘i

Toshtemirov Zokirjon Toxirovich — Andijon viloyati Buloqboshi tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

Turdiyev Sherbek Nuriddinovich — Samarqand viloyati Narpay tumani ichki ishlar bo‘limi mahalla huquq-tartibot maskani profilaktika bosh inspektori

Xaydarov Sherzod Sheraliyevich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Shaxsiy xavfsizlik bosh boshqarmasi Toshkent shahar bo‘yicha boshqarmasi boshlig‘i

Xudayqulov Suyar Suvanqulovich — Qashqadaryo viloyati Kitob tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika inspektori

Ergashov Qaxramon Omanovich — Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi yo‘l-patrul xizmati inspektori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2026-yil 23-oktabr

O‘ZBEKISTON VAKILI FAO TOMONIDAN QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA JAHONNING 100 QAHRAMON AYOLIDAN BIRI DEB TOPILDI

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan “Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tizimlari va qishloq yerlarini rivojlantirishda 100 qahramon ayol” ro‘yxati e’lon qilindi.



Italiyaning Rim shahrida joylashgan FAO bosh qarorgohida ushbu nufuzli e’tirofga sazovor bo‘lganlarni taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda odamlar hayotini yaxshilash hamda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tizimlarini o‘zgartirishga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan fidoyi xotin-qizlar sharaflandi.

Mazkur ro‘yxatdan O‘zbekiston vakili — Farg‘ona viloyatidagi “Quva anori” agrofirmasi rahbari Masturaxon Sayfutdinova ham joy oldi. U qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, sohaga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, Anor yetishtiruvchilar uyushmasini tashkil etish tashabbusi hamda sohaga oid darslik va qo‘llanmalar yaratishdagi xizmatlari uchun yuksak mukofotga loyiq ko‘rildi.

FAO bosh direktori Syuy Dunyuy o‘zbekistonlik g‘olibni shaxsan taqdirlab, bu nafaqat shaxsiy yutuq, balki O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tizimi va xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini qo‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlarning amaliy natijasi ekanini ta’kidladi.

Dunyoning 130 dan ortiq mamlakatidan 600 dan ziyod nomzod orasidan saralab olingan Masturaxon Sayfutdinova yetakchilik salohiyati, tirishqoqligi va tashabbuskorligi bilan jahonning 100 qahramon ayoli qatoridan o‘rin oldi.

“Dunyo” AA

Rim shahri

25-oktabr — Ichki ishlar organlari xodimlari kuni

XALQ ISHONCHI — ENG OLIY BAHO



Aziz TOSHPO‘LATOV,
O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri, general-leytenant

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “35 yil — tarix uchun juda qisqa davr. Lekin ortda qolayotgan yillar o‘zining ko‘lami, yutuq va natijalari bilan asrga tatigulik davr bo‘ldi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi”. Ayniqsa, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, qurolli mojarolar, transmilliy jinoyatchilik, ekstremistik g‘oyalar va kibermakondagi yangi tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi kunda yurtimizdagi osoyishtalikning qadrini har qachongidan ham chuqurroq his etamiz.

Jonajon Vatanimizda tinchlik va barqarorlik ta’minlangani, aholining turmush sharoiti muttasil yaxshilanib borayotgani hamda xalqaro maydonda davlatimiz nufuzining tobora ortayotgani Prezidentimizning uzoqni ko‘zlab yuritayotgan oqilona va izchil siyosati samarasidir.

Tarix sahifalarini varaqlaganda...

Bugun yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va xotirjamlik, osudalikka o‘z-o‘zidan erishilgani yo‘q, albatta. Mustaqillikning ilk yillarida murakkab kriminogen vaziyatning yuzaga kelishi oqibatida terrorchilik xurujlari va uyushgan jinoyatchilikning ortishi jamiyat barqarorligiga jiddiy xavf solgandi. Xususan, buzg‘unchi kimsalarning Toshkent viloyatining Yangiobod, Surxondaryoning Sariosiyo va Uzun tumanlari hududlariga suqilib kirgani, Toshkent shahrida sodir etilgan qo‘poruvchilik harakatlari hamda Andijon voqealari barchamizning xotiramizda og‘riqli iz qoldirgan.

Ushbu harakatlar ortida turgan yovuz niyatli kimsalarning asl maqsadi yurtimizdagi konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan ag‘darish hamda tinch-osoyishta hayotimizni izdan chiqarish orqali mustaqil O‘zbekistonni o‘z taraqqiyot yo‘lidan qaytarish edi. Bunday tahlikali davrda ichki ishlar organlarining qanchadan-qancha xodimlari xalq osoyishtaligi, Vatan tinchligi yo‘lida ko‘ksini qalqon, aziz jonlarini fido qilganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Har qanday davlatda ichki ishlar organlari tinchlik-osoyishtalikni hamda qonun ustuvorligini ta’minlash, shuningdek, fuqarolarning emin-erkin yashab, mehnat qilishi uchun qulay muhit yaratishga mas’uldir.

Shu bois, o‘tgan 35 yilda yurtimiz osoyishtaligini asrash, fuqarolar xavfsizligi va jamoat tartibini saqlash yo‘lida ichki ishlar organlari xodimlaridan 127 nafari mardlarcha halok bo‘ldi. Xizmat burchini bajarish chog‘ida jonini fido qilgan ana shunday mard va jasur o‘g‘lonlarimizning yorqin xotirasi qalbimizda umrbod saqlanadi.

Huquqiy asoslar yaratildi

Mustaqillik yillarida ichki ishlar organlari faoliyatining turli yo‘nalishlarini huquqiy jihatdan tartibga solish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qonunchilik asoslari bosqichma-bosqich takomillashtirildi.

Masalan, 2000-yil 15-dekabrda “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Mazkur hujjat terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Oradan o‘n ikki yil o‘tib, ya’ni 2012-yil 25-dekabr kuni “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonun tasdiqlanib, ushbu faoliyatning huquqiy asoslari, uni amalga oshiruvchi organlarning vakolatlari hamda mazkur yo‘nalishni tashkil etish shartlari mustahkamlandi.

Shuningdek, 2010-yil 29-sentabrdagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi hamda 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi esa huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solib, profilaktika subyektlarining vazifalari va hamkorligi uchun huquqiy asos yaratdi.

Bundan tashqari, 2008-yil 17-apreldagi “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunda bu boradagi sa’y-harakatlar tartibga solindi. Eng quvonarlisi, 2016-yil 16-sentabr kuni “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, tizimda xizmat qilayotgan xodimlarning asosiy vazifalari, prinsiplari, huquq va majburiyatlari hamda faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari belgilab berildi.

Shunday qilib, mazkur normativ-huquqiy hujjatlar jinoyatchilikka qarshi kurashish, tezkor-qidiruv faoliyati, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligining muayyan yo‘nalishlarini huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mahalla tinch — yurt tinch

Ichki ishlar organlarini xalq manfaatlari yo‘lida xizmat qiladigan professional tuzilmaga aylantirish maqsadida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so‘nggi 10 yilda tizim faoliyati zamon talablari asosida tubdan takomillashtirildi. Bu davrda tizimni tartibga soluvchi 82 ta qonun, Prezidentimizning 26 ta farmoni va 70 ta qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 180 ta qarori qabul qilindi. Natijada shaxsiy tarkibning 85 foizi quyi bo‘g‘inga tushirilib, aholiga yaqinlashtirildi. Sohaviy xizmatlar faoliyatiga zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlari joriy etildi.

Tizim faoliyatini raqamlashtirish darajasi 86 foizga yetkazilib, bu orqali fuqarolarga xizmat ko‘rsatish tezkorligi oshirildi hamda aholi bilan ishlayotgan xodimlarning faoliyatida inson omili ishtirokiga barham berilmoqda. Eng asosiysi, xavfsizlik bilan bog‘liq barcha sa’y-harakatlar respublika, viloyat yoki tuman-shahar darajasida emas, balki mahallabay amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining topshirig‘iga binoan barcha darajadagi rahbarlar aholi bilan ushbu tamoyil asosida muloqot qilib, muammolarga samarali yechim topmoqda.

Aholining muammolarini joyida hal etish orqali xavfsiz muhit yaratishda “mahalla yettiligi” faoliyati qo‘l kelmoqda. Barcha mahallada profilaktika inspektorlari ish yuritmoqda. Ularning asosiy vazifasi mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirishdir. Huquqbuzarlik sodir etishi hamda huquqbuzarlikdan jabrlanishi mumkin bo‘lgan shaxslarning muammolari ijtimoiy profilaktika doirasida “yettilik” hamkorligida hal etilmoqda. Bu mahallani xavfsiz hududga aylantirishga xizmat qilayotir.

Muvaffaqiyat kafolati

So‘nggi o‘n yilda mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning zamirida, avvalo, inson qadri, xalq manfaati va odamlarning bugunidan rozi bo‘lib yashashi mujassam.

Prezidentimiz ilgari surgan **“Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak”** degan ezgu tamoyil ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy mezoniga aylandi. Hozirgi islohotlar bevosita tizim faoliyatida ham o‘z ifodasini topib, sohani nafaqat shaklan, balki mazmun-mohiyat jihatidan ham butunlay o‘zgartirdi.

Jumladan, ichki ishlar organlari tizimini zamon talablari asosida qayta tashkil etish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, xodimlarning professionalligini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Yangi O‘zbekistondagi ulkan o‘zgarishlar davrida ekspertlari tomonidan Davlat boshqaruvi samaradorligini baholash dasturi doirasida mamlakatdagi 41 ta vazirlik va idoralar o‘rtasida o‘tkazilgan tanlov natijalariga ko‘ra, Ichki ishlar vazirligi davlat xizmatlarini ko‘rsatish yo‘nalishida g‘olib deb topildi. Bu yutuqni Prezidentimiz ham alohida e’tirof etdi. Shu bilan birga, barcha vazirlik va idoralar o‘rtasidagi raqamlashtirish reytingida Ichki ishlar vazirligi 2023-yildagi 31-o‘rindan 5-o‘ringa, axborot xavfsizligi reytingida esa 51-o‘rindan 1-o‘ringa ko‘tarildi.

Ichki ishlar organlari uchun yuqori professional kadrlarni tayyorlash va xalq manfaatlari yo‘lida xizmat qiladigan xodimlarni tarbiyalash mexanizmi sifatida vazirlik akademiyasi kunduzgi ta’lim shakli qabul kvotasi o‘tgan o‘quv yilida 700 tadan 900 taga oshirilib, joriy yildan 1100 taga yetkazildi. Kursantlarning o‘qish jarayoni to‘liq 4 kun nazariy va 2 kun amaliy tarzda — dual ta’lim shakliga o‘tkazildi.

Shu bilan birga, ichki ishlar organlarida 3 yillik ish stajiga ega xodimlar uchun masofaviy ta’lim shakli joriy etildi va ayni paytda 800 o‘ringa mo‘ljallangan IIV Malaka oshirish instituti Nukus filiali ham muvaffaqiyatli tashkil etilmoqda.



barqarorlikni ta’minlash borasida ichki ishlar organlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklangan. Davlatimiz rahbari belgilab bergan ustuvor vazifalar asosida ichki ishlar organlarining ish uslubi va boshqaruvi tubdan takomillashtirilib, aholiga xizmat qiladigan tizimga aylantirildi.

So‘nggi ikki yilda soha faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Milliy gvardiya tarkibidagi Qo‘riqlash departamenti hamda 2000 nafar inspektor-psixolog ichki ishlar organlariga o‘tkazildi. Shuningdek, Migratsiya va personallashtirish hamda Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish departamentlari, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish xizmati va xalqaro tezkor-qidiruv faoliyati bo‘limi tashkil etildi. Tizimda ochiqlik va halollik muhitini mustahkamlash maqsadida ichki ishlar vazirining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi hamda komplayens xizmati o‘z faoliyatini boshladi.

Bundan tashqari, vazirlikda maxsus tezkor tergov boshqarmasi, hududiy tezkor guruhlar hamda prekursorlarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish bo‘limi tuzildi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida dronlardan samarali foydalanish uchun Ichki ishlar vazirligi jamoat xavfsizligi aviatsiyasi boshqarmasi ish boshlagan bo‘lsa, Toshkent shahri ichki ishlar bosh boshqarmasi tarkibida Islom sivilizatsiyasi markazida xavfsizlikni ta’minlash bo‘limi va Olimpiya shaharchasi majmuasida jamoat tartibini saqlash bo‘limi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

E’tiborli jihati shundaki, 2016-yili faoliyatda bor-yo‘g‘i 6 ta axborot tizimi mavjud bo‘lgan, bugun esa ularning soni 62 taga yetkazilib, shundan 43 tasi amaliyotga joriy qilindi. Shuningdek, vazirlik tomonidan ko‘rsatilayotgan 60 turdagi davlat xizmatining 55 tasi to‘liq raqamli shaklga o‘tkazildi.

Mazkur yo‘nalishdagi ishlar yuqori baholanib, joriy yil boshida BAA xalqaro

Kelajakka qo‘yilgan qadam

Davlatimiz rahbari istiqlolimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida mamlakatimiz mutlaqo yangi bosqichga qadam qo‘yayotganini ta’kidlab, kelgusi o‘n yillik yurtimiz uchun milliy yuksalish davri bo‘lishini qayd etdi. Yurtimizning barqaror taraqqiyotini ta’minlash, xalqimiz farovonligini oshirish va inson qadrini yanada yuksaltirishga qaratilgan 7 ta muhim milliy dasturni e’lon qildi. Mazkur dasturlarning beshinchisi sud mustaqilligini kuchaytirish hamda qonun ustuvorligini ta’minlashni umumiy qadriyatga aylantirish etib belgilandi.

Ushbu yo‘nalishda kiberjinoyatchilik, giyohvandlik va odam savdosining oldini olish bo‘yicha choralarni yanada kuchaytirish, yashirin iqtisodiyot, uyushgan jinoyatchilik, ayollar va bolalar huquqlarini kamsitishga qarshi kurashni yangi bosqichga ko‘tarish zarurligiga alohida urg‘u berildi.

Milliy dasturdan kelib chiqqan holda, ichki ishlar organlari tomonidan kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan qator muhim vazifalar belgilab olindi. Ularning bajarilishi, eng avvalo, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Biz uchun eng oliy vazifa yurt tinchligini ko‘z qorachig‘idek asrash va huquq-tartibotni mustahkamlashdir. Eng oliy mukofot esa xalq ishonchi. Xodimlarimiz har kuni xizmatga otlanar ekan, doimo bir haqiqatni yodda tutadi: xalqimizning tinch uyqusi — bizning bedorligimizga, yurtimiz osoyishtaligi — bizning sadoqatimizga, mustaqilligimizning mustahkamligi esa har birimizning ona Vatan oldidagi burchimizni sidqidildan ado etishimizga bog‘liq.



YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Davlatimiz rahbari yuritayotgan siyosatning bosh maqsadi inson qadrini ulug‘lash, xalqni davlat idoralaridan rozi qilish va davlatni fuqaroga xizmat qiladigan samarali tizimga aylantirishdir. Ijro intizomi ana shu ulkan siyosiy maqsadni kundalik boshqaruv amaliyotiga ko‘chiradigan asosiy mexanizmlardan biri.

DAVR NAFASI

3

2026-yil 24-oktabr, 221-son

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMI — DAVLAT SIYOSATI NATIJADORLIGINING BOSH MEZONI



Akbar TOSHQULOV,
O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri

Boshlanishi 1-betda

Siyosiy iroda va shaxsiy javobgarlikka tayangan tizim

Ijro tizimidagi tub o‘zgarishlarning negizida, avvalo, kuchli siyosiy iroda turibdi. Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bu borada yangi bosqichni boshlab berdi. Farmon bilan ijro natijasi uchun, eng avvalo, rahbarning shaxsiy javobgarligi belgilandi va barcha davlat organlari uchun yagona yondashuv joriy qilindi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida “Ijro.gov.uz” tizimining samarali ishlashiga doir aniq choralar belgilandi. Natijada topshiriqlarni elektron ro‘yxatga olish, ijrochini biriktirish, muddatni kuzatish va ijro holatini baholashning yagona raqamli mexanizmi shakllandi.

Prezidentimizning 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-sentabrdagi tegishli qarori mazkur siyosiy talabni yanada kuchaytirdi: topshiriq uchun mas’ul rahbar natijani shaxsan ta’minlashi, muammoni yashirmasligi va kechikish xavfini oldindan bartaraf etishi kerak.

Hukumatning 2026-yil 20-fevraldagi tegishli qarori bilan esa ijro intizomiga mas’ul tuzilmalar xodimlarining malakasini muntazam oshirib borish tizimi joriy etildi. Shu tariqa texnologiya, shaxsiy mas’uliyat va kasbiy salohiyat yagona boshqaruv mexanizmida uyg‘unlashtirildi.

Adliya vazirligi bu borada o‘ziga yuklangan vazifani faqat statistik nazorat deb tushunmaydi. Biz “Ijro.gov.uz” tizimida nazoratga olingan har bir topshiriqning mazmuni, amaliy natijasi va uni tasdiqlovchi asoslarni muntazam ko‘rib chiqamiz. Chunki ortiqcha optimistik hisobot emas, xolis holat va real natija to‘g‘ri boshqaruvning asosidir.

Bugungi kunda 378 ta qonun hamda Prezidentimizning 4653 ta hujjatida belgilangan 180 mingta topshiriq “Ijro.gov.uz” orqali nazoratga olingan. 2025-yildan boshlab Prezident Administratsiyasi rahbarining farmoyishlari, rezolyutsiyalari va topshiriqlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi qarorlari ijrosi ham mazkur yagona nazorat doirasiga kiritildi. Bu davlat boshqaruvida tarqoq nazoratdan yagona va yaxlit ijro siyosatiga o‘tilganini anglatadi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida qonunlar, Prezident va hukumat hujjatlari, shuningdek, Prezident Administratsiyasi rahbari farmoyishlari hamda topshiriqlari bo‘yicha jami 63 ming 489 ta vazifa ijrosi ko‘rib chiqildi.

Ayni davrda mazkur topshiriqlar doirasida tizimga kiritilgan 214 ming 201 ta ijro natijasi mazmunan ekspertizadan o‘tkazildi. Hujjatlardagi kamchiliklar yoki vazifa to‘liq yakuniga yetkazilmagani sababli 87 ming 356 ta natija, jami taqdim etilgan materiallarning 41 foizi mas’ul ijrochilarga qayta ishlash uchun yuborildi.

Natijada Prezidentimizning farmon va qarorlari bo‘yicha muddati kelgan 46 ming 906 ta topshiriqdan 46 ming 848 tasi, ya’ni 99,8 foizi bajarildi. Prezident Administratsiyasi rahbari farmoyishlari va topshiriqlari bo‘yicha muddati kelgan 9384 ta vazifaning 9372 tasi — 99,9 foizining ijrosi ta’minlandi.

Vazirlar Mahkamasi qarorlari bo‘yicha muddati kelgan 7199 ta topshiriqdan 7196 tasi, ya’ni 99,9 foizi bajarildi. Bu davlat apparatida “topshiriq berildi — natija ta’minlanishi shart” degan siyosiy va boshqaruv tamoyili tobora mustahkam qaror topayotganini ko‘rsatadi.

Yirik sarmoya va bunyodkorlik

Ijro intizomining haqiqiy ko‘lami iqtisodiyotga jalb etilgan sarmoya, yaratilgan quvvat va odamlar foydalanayotgan infratuzilmada yaqqol ko‘rinadi. 2026-yilning birinchi yarmida davlat dasturlari doirasidagi ishlar ana shunday salmoqli natijalarni berdi.

Jumladan, V Toshkent xalqaro investitsiya forumi yakunida umumiy qiymati 43,1 milliard dollarlik 166 ta investitsiya shartnomasi imzolandi. Bu shunchaki kelishuvlar portfeli emas, yangi korxonalar, zamonaviy texnologiyalar, ish o‘rinlari va hududlar taraqqiyoti uchun yaratilgan iqtisodiy poydevordir.

Agrar sohani texnik jihatdan yangilash uchun 400 million dollar yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan. Shundan 200 million dollari Islom taraqqiyot banki mablag‘lari hisobidan qishloq xo‘jaligini, yana 200 million dollari Xitoy Eksport-import banki mablag‘lari hisobidan paxta yig‘im-terimini mexanizatsiyalashga yo‘naltiriladi. Mazkur mablag‘larning maqsadli va o‘z vaqtida o‘zlashtirilishi mehnat unumdorligini oshirish, hosilni qisqa muddatda yig‘ib olish va fermer xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilishi kerak.

Suv xo‘jaligida 250 ta irrigatsiya obyektida qurilish va rekonstruksiya ishlari uchun 1 trillion 811 milliard so‘m ajratildi. Birinchi yarim yillikda ushbu mablag‘ning 958,7 milliard so‘mi o‘zlashtirilib, 586,1 kilometr kanal, 13,3 kilometr lotok tarmog‘i, 21,4 kilometr yopiq quvur, 3,6 kilometr bosimli quvur, 30 ta sug‘orish qudug‘i va boshqa qator obyektlarda qurilish hamda rekonstruksiya ishlari bajarildi. Bu raqamlar ortida suv yo‘qotilishini kamaytirish, yer unumdorligini saqlash va dehqonning ertangi kunga ishonchini mustahkamlashdek hayotiy maqsadlar turibdi.

> **Bugungi kunda tizim “project.gov.uz”, “loyiha.adliya.uz”, “e-qaror.gov.uz”, “lex.uz”, “Yashil makon”, “E-Ijara”, “O‘zbekkosmos”, “Shaffof qurilish”, “Shaffof yo‘l”, “Agrosubsidiya”, “Agroplatforma”, “Online-mahalla” va “Yangi ish” kabi 13 ta platforma bilan o‘zaro ma’lumot almashmoqda.**

Energetika xavfsizligi va “yashil” iqtisodiyot yo‘nalishida ham keng ko‘lamli ishlar qilindi: 120 dan ortiq yirik qayta tiklanuvchi energiya loyihasi ishga tushirilib, quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalarning jami quvvati sakkiz ming megavattdan oshdi. Hisobot davrida 476 ta ko‘p kvartirali uy qurilib, 33 ming 806 ta xonadon foydalanishga topshirildi. Ana shunday natijalar har bir topshiriqning ortida mablag‘, muddat va xalq oldidagi majburiyat turganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yirik mablag‘ ajratishning o‘zi yetarli emas. Har bir so‘m aniq natijaga aylanishi, loyiha belgilangan muddatda ishga tushirilishi, yaratilgan obyekt esa xalqqa xizmat qilishi shart. Shu ma’noda, ijro nazorati byudjet va investitsiya mablag‘lari samaradorligini ta’minlaydigan, iqtisodiy yo‘qotishlarning oldini oladigan va islohotlarni real bunyodkorlikka aylantiradigan muhim siyosiy institutdir.

Elektron platformadan “aqlli” boshqaruv sari

Prezidentimiz belgilab bergan raqamli davlat konsepsiyasi boshqaruvni tezkor, ixcham va inson omiliga kamroq bog‘liq qilishni talab etadi. Zamonaviy tizim ma’lumotni shunchaki qayd etmasdan, xavfni oldindan ko‘rishi va rahbarga o‘z vaqtida siyosiy-boshqaruv qarori qabul qilish uchun asos yaratishi kerak. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, “Ijro.gov.uz” topshiriqlarni ro‘yxatga oluvchi platformadan zamonaviy tahliliy boshqaruv tizimiga aylanayotgani katta ahamiyatga ega.

Tizimga sun’iy intellekt elementlari joriy etilishi natijasida takrorlanuvchi topshiriqlar avtomatik ravishda ajratilmoqda, ijro muddati yaqinlashayotgan vazifalar bo‘yicha mas’ul rahbarlar oldindan ogohlantirilmoqda. Bu vaqtni tejash, resurslardan oqilona foydalanish va kechikish xavfini kamaytirishga yordam bermoqda.

“Ijro.gov.uz”da yaratilgan alohida modul orqali topshiriqlarni nazoratdan olish va muddatini uzaytirish jarayonlari ham to‘liq raqamlashtirildi. Natijada tashkilotlar taqdim etadigan hujjatlar soni ikki baravar qisqarib, jarayonning har bir bosqichini kuzatish imkoniyati yaratildi. Bu byurokratik yukni kamaytirib, ijrochining vaqtini hisobot tayyorlashga emas, vazifani amalda bajarishga yo‘naltirmoqda.

Bajarilmaslik xavfi mavjud topshiriqlar har oyda saralanib, ular bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar hukumatga kiritilmoqda. Bunday profilaktik nazorat muammoni sodir bo‘lganidan keyin qayd etish emas, uni oldindan ko‘rib, barvaqt bartaraf etish imkonini beradi.

Boshqaruv qarori sifati, avvalo, foydalanilayotgan ma’lumotning ishonchliligi va tezkorligiga bog‘liq. Shu sababli “Ijro.gov.uz” boshqa davlat axborot resurslari bilan integratsiya qilinmoqda.

Bugungi kunda tizim “project.gov.uz”, “loyiha.adliya.uz”, “e-qaror.gov.uz”, “lex.uz”, “Yashil makon”, “E-Ijara”, “O‘zbekkosmos”, “Shaffof qurilish”, “Shaffof yo‘l”, “Agrosubsidiya”, “Agroplatforma”, “Online-mahalla” va “Yangi ish” kabi 13 ta platforma bilan o‘zaro ma’lumot almashmoqda.

Integratsiya bir xil ma’lumotni qayta-qayta kiritish zaruratini kamaytirdi, nazorat jarayonini tezlashtirdi va tahlil aniqligini oshirdi. Eng muhimi, mas’ul ijrochi va nazorat organlarining vaqt hamda mehnat resurslari tejalmoqda. Bu nafaqat oddiy texnik qulaylik, balki qarorlarni hisobotga emas, ishonchli va tezkor ma’lumotga tayangan holda qabul qilishga o‘tishdir.

Monitoring vazifasi — muammoni barvaqt hal etish

Barpo etilayotgan yangi boshqaruv modeli jazolashga emas, muammoni hal etishga qaratilgan. Nazoratning vazifasi kamchilikni qayd etib, aybdor izlash bilan cheklanmasligi kerak. Asosiy maqsad — ijroga to‘sqinlik qilayotgan omilni barvaqt ko‘rish, davlat organiga amaliy ko‘mak berish va xalq kutayotgan yakuniy natijani ta’minlash.

Prezidentimizning 2025-yil 25-iyuldagi farmoni ijrosi doirasida Hisob palatasi va Adliya vazirligining qo‘shma qarori asosida hududlarda 14 ta ishchi guruh tuzildi. Ular Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida qonunchilik hujjatlari hamda topshiriqlar ijrosini joyiga chiqqan holda o‘rganmoqda.

Ishchi guruhlardan faqat kamchilik topish emas, masalani joyida hal etish talab qilinadi. Ular metodik tavsiyalar beradi, ijroga mas’ul xodimlarga huquqiy va tashkiliy masalalarda ko‘maklashadi. Bunday yondashuv markaz va hududlar o‘rtasidagi mas’uliyatli hamkorlikni kuchaytirib, xatoni qayd etishdan uning takrorlanishining oldini olishga o‘tish imkonini bermoqda.

2026-yilning birinchi yarmida hududiy adliya organlari tomonidan joylarga chiqqan holda 3485 ta monitoring tadbiri o‘tkazildi. Ushbu jarayonda to‘liq yakuniga yetkazilmagan 965 ta topshiriq bo‘yicha ijrochilarga amaliy yordam ko‘rsatildi. Ishchi guruhlar ko‘magida Qoraqalpog‘iston Respublikasida 215 ta, Navoiy viloyatida 155 ta va Andijon viloyatida 109 ta topshiriq ijrosi ta’minlanib, nazoratdan olindi.

Biroq amaliy ko‘mak mas’uliyatsizlikka ko‘z yumishni anglatmaydi. Ushbu davrda ijro intizomini mustahkamlash maqsadida davlat organlari va tashkilotlariga 31 ta taqdimnoma, 38 ta ogohnoma hamda 500 ga yaqin ogohlantirish xati kiritildi. Topshiriqlar ijrosiga loqayd munosabatda bo‘lgan 124 rahbar o‘rinbosari va mas’ul ijrochi intizomiy javobgarlikka tortildi. Ularning 14 nafari lavozimidan ozod etildi, 51 nafariga hayfsan, 59 nafariga jarima qo‘llanildi.

Bu choralar davlat topshirig‘i o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash, xalq manfaatiga beparvo munosabat uchun javobgarlik muqarrarligini ko‘rsatishga qaratilgan.

Ijro jarayonlari ochiqligini ta’minlash maqsadida Adliya vazirligi tomonidan axborot-tahliliy materiallar ham tayyorlanmoqda. Qonunchilik hujjatlari ijrosi va ularning insonlar hayotidagi natijalari “Alohida nazorat” hamda “Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda” ruknlari orqali “O‘zbekiston 24” va boshqa telekanallarda jamoatchilikka xalqchil tilda yetkazildi.

Texnologiya ortida malakali mutaxassis turadi

Har qanday elektron tizimning samaradorligi undan foydalanayotgan xodimning bilimi, mas’uliyati va kasbiy yondashuviga bog‘liq. Shu bois, raqamli nazorat vositalarini rivojlantirish bilan birga ijro intizomiga mas’ul mutaxassislar malakasini oshirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-fevraldagi tegishli qarori asosida ushbu yo‘nalishdagi xodimlarni zamonaviy boshqaruv usullari, elektron nazorat mexanizmlari, tahlil va monitoring ko‘nikmalariga o‘qitishning yangi tartibi belgilandi. 2026-yilning birinchi yarim yilligida vazirlik va idoralarning 180 ga yaqin rahbar xodimi hamda mutaxassisi malaka oshirdi.

> **ADLIYA VAZIRLIGI SIFATIDA QAT’IY POZITSIYAMIZ SHUKI, QONUNCHILIK HUJJATI IJROSI HISOBOT EMAS, INSON HAYOTIDAGI NATIJA BILAN YAKUNLANISHI SHART. RAHBARNING MAS’ULIYATI TOPSHIRIQNI QUYI BO‘G‘INGA YUBORISH BILAN TUGAMAYDI, U NATIJA UCHUN SHAXSAN JAVOB BERADI.**

Davlat xizmatchisidan bugun faqat topshiriqni qabul qilish emas, uning siyosiy ahamiyati va xalq hayotiga ta’sirini anglash talab etiladi. Kuchli platforma o‘z-o‘zidan natija bermaydi. Uni vatanparvarlik, professional bilim va shaxsiy mas’uliyat bilan ishlatadigan kadrlargina islohotni real natijaga aylantiradi.

Inson manfaati — umumiy maqsadimiz

Bugun “Ijro.gov.uz” mas’ul ijrochining shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, tahliliy ma’lumot asosida boshqaruv qarorini qabul qilish hamda davlat organlari faoliyatida ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ammo biz tizimning muvaffaqiyatini faqat raqam va foizlar bilan o‘lchamaymiz.

O‘z vaqtida bajarilgan topshiriq yangi ish o‘rni, sifatli tibbiy xizmat, zamonaviy ta’lim, obod mahalla, qulay infratuzilma va fuqarolar uchun munosib sharoit demakdir. Har bir kechikkan topshiriq ortida esa yechimi cho‘zilgan muammo va davlatdan natija kutayotgan inson turishi mumkin. Shu sababli ijroga loqayd munosabatni xalq manfaatiga loqaydlik deb baholashimiz kerak.

Davlatimiz rahbari yuritayotgan siyosatning bosh maqsadi inson qadrini ulug‘lash, xalqni davlat idoralaridan rozi qilish va davlatni fuqaroga xizmat qiladigan samarali tizimga aylantirishdir. Ijro intizomi ana shu ulkan siyosiy maqsadni kundalik boshqaruv amaliyotiga ko‘chiradigan asosiy mexanizmlardan biri.

Adliya vazirligi sifatida qat’iy pozitsiyamiz shuki, qonunchilik hujjati ijrosi hisobot emas, inson hayotidagi natija bilan yakunlanishi shart. Rahbarning mas’uliyati topshiriqni quyi bo‘g‘inga yuborish bilan tugamaydi, u natija uchun shaxsan javob beradi.

Yangi O‘zbekistonning kuchi qabul qilayotgan qarorlarimiz bilangina emas, ularni qanday qat’iyat, intizom va mas’uliyat bilan hayotga tatbiq etayotganimizda namoyon bo‘ladi. Har bir vazifaga xalq manfaatidan kelib chiqib yondashsak, davlatga ishonch mustahkamlanadi, islohotlar ortga qaytmas tus oladi va taraqqiyotimiz yanada jadallashadi.

Hamkorlik istiqbollari

Aholining energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qator imtiyoz va imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, xonadonlarga quyosh panellari, issiqlik nasoslari hamda boshqa energiya tejamkor qurilmalarni o‘rnatish uchun 20 foiz miqdorida subsidiya ajratish belgilangan. Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalar xonadonlariga esa quyosh panellari tekinga o‘rnatilmoqda.

“YASHIL” ENERGIYA — aholi uchun arzon va qulay ta’minot



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Tartibga ko‘ra, aholi turar joylarini energiya auditidan o‘tkazish xarajatlari uchun 100 foiz subsidiya beriladi. Shuningdek, issiqlik nasoslarini xarid qilish va o‘rnatish xarajatlarining 40 foizigacha qismi davlat tomonidan qoplanadi. Qoraqalpog‘istonda bu boradagi amaliy ishlar jadal va izchil davom etmoqda.

— Ijtimoiy yordam loyihasi Energetika vazirligi, Qoraqalpog‘iston Jo‘qorg‘i Kengesi va “ACWA” kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda, — deydi “ACWA” kompaniyasining davlat idoralari bilan ishlovchi koordinatori Alibek Kamolov. — 2024-yilda boshlangan loyiha asosida hududdagi 810 ta xonadonga quyosh panellari o‘rnatib berdik. Bolalar bog‘chasi, maktab, shifoxona kabi 101 ta ijtimoiy obyektda quyosh stansiyalari tekinga o‘rnatildi. Uzoq muddat elektr energiyasi tanqis bo‘lgan qishloqlarda 200 kilovattli 16 ta quyosh stansiyasi qurildi. Hozir loyihaning navbatdagi bosqichi boshlandi. Uning doirasida olis mahallalarda 200 kilovattli 10 ta fotoelektr stansiyasini qurish, 783 ta xonadonni 2 kilovattli quyosh panellari bilan ta’minlash reja qilingan.

Nukus tumanidagi “Diyqan arna” mahalla fuqarolar yig‘inida ham mazkur loyiha doirasida qator ishlar qilinyapti. Jumladan, ijtimoiy reyestrga kiritilgan xonadonlarga belgilangan tartibda tekinga quyosh panellari o‘rnatilmoqda.

— “ACWA” kompaniyasi maktabimizga 10 kilovattli quyosh paneli o‘rnatib berdi, — deydi Nukus tumanidagi 31-umumta’lim maktabi direktori Bekpo‘lat Tilepboyev. — Sinfxonalardagi kompyuter, elektron doskalar ishi bevosita energiya barqarorligiga bog‘liq. Quyosh paneli maktab energiya ta’minoti uchun juda yaxshi yechim bo‘ldi. Masalan, ortiqcha energiya davlatga sotilib, undan tushgan pul maktabimiz rivoji uchun maqsadli sarflanadi.

Nukus tumanidagi “Biogumus” fermer xo‘jaligi pomidor yetishtirish va uni eksport qilish bilan shug‘ullanadi. Mahsulot yetishtirish va ishlab chiqarish jarayonida ekologik toza energiyadan foydalanish maqsadida xo‘jalikka 400 kilovatt quvvatli quyosh elektr stansiyasi o‘rnatib berildi.

— To‘qqiz yildan buyon pomidor ekib, organik usulda quritib, tabiiy holda eksport qilib kelyapmiz. Qo‘shilgan qiymatni oshirish maqsadida hozir konserva zavodi qurdik. Zavodning elektr energiyasi masalasini “ACWA” kompaniyasi bilan hamkorlikda hal etdik, — deydi tadbirkor Sherzod Niyozimbetov. — Maqsadimiz — kelajakda qo‘shilgan qiymatni oshirish va mahsulot tannarxini tushirish. Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi to‘liq zavodni yurgizishga yetadi. Jahon bozorida o‘z o‘rnimizni mustahkamlab, yanada ko‘proq ish o‘rinlari yaratishni maqsad qilganmiz.

Shuningdek, ushbu hududda 20 ta xonadonga qo‘shimcha 5 kilovattli jami 100 kilovattli quyosh panellari o‘rnatib berildi. Tuman tibbiyot birlashmasi ham quyosh elektr stansiyasi bilan ta’minlandi.

— Nukus tumani tibbiyot birlashmasiga 20 kilovattli quyosh paneli joriy yilning iyul oyida qurib berildi. Hozir muqobil energiya, asosan, tug‘uruq bo‘limiga ulangan. Har qanday sharoitda ham elektrda uzilishlar bo‘lmaydi, — deydi Nukus tumani tibbiyot birlashmasi boshlig‘i o‘rinbosari Seytmurot Jaqsimov.

Qoraqalpog‘istonning tabiiy iqlim sharoitidan samarali foydalanilib, qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlantirilyapti. Masalan, Qorao‘zak, Beruniy va Qo‘ng‘irot tumanlarida shamol elektr stansiyalari qurilishi belgilangan. Shu orqali aholi va iqtisodiyot tarmoqlari arzon va ishonchli elektr energiyasi bilan ta’minlanadi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Prezidentimizning viloyatga tashrifi Qashqadaryoning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab bergani, aholi farovonligi yo‘lidagi bunyodkorlik ishlarini izchil davom ettirishga zamin yaratgani bilan g‘oyat ahamiyatli.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 24-oktabr, 221-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Shukuh



Mamlakatimizdagi bunyodkorlik va yangilanishlar Qashqadaryoda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bugun hududda qad rostlayotgan zamonaviy inshootlar, yangilanayotgan infratuzilma va aholi farovonligini yuksaltirishga qaratilgan sa’y-harakatlar vohaning tobora o‘zgarib borayotgan qiyofasida aks etmoqda.

QASHQADARYONING O‘ZGARIB BORAYOTGAN QIYOFASIDA AKSLANAYOTGAN RIVOJLANISH SHIDDATI



Nargiza SALOMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Bu yangilanishlar nafaqat hududlar qiyofasini o‘zgartirmoqda, balki odamlar hayotiga yangicha mazmun olib kirmoqda, qalbiga ertangi kunga ishonch bag‘ishlamoqda. Ha, keng qamrovli islohotlar natijasida bugun iqtisodiyot va infratuzilma bilan bir qatorda aholining turmush tarzi, dunyoqarashi va kelajakka intilishi ham o‘zgarib, hayotdagi yangilanishlar insonlar taqdirida tobora ko‘p namoyon bo‘lmoqda.

Xususan, so‘nggi besh yilda viloyatga 20 trillion so‘m yo‘naltirilib, 7 milliard dollarlik xorijiy investitsiya jalb etilgani Qashqadaryoning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qildi. Bu mablag‘ yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, qo‘shimcha ish o‘rinlari tashkil etish, aholi bandligini ta’minlash va daromadini oshirish uchun keng imkoniyatlar ochdi.

Eng muhimi, bu sa’y-harakatlar viloyat infratuzilmasini rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, sanoat va xizmatlar sohasini kengaytirish orqali aholi farovonligini yuksaltirishga mustahkam zamin hozirladi.

Islohotlar samarasi viloyat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi o‘sish sur’atida ham namoyon bo‘lmoqda. Joriy yilning to‘qqiz oyida sanoat ishlab chiqarishi 8,4 foiz, xizmat ko‘rsatish sohasi 16,6 foiz, qishloq xo‘jaligi esa 4,9 foiz o‘sdi. Ushbu ko‘rsatkichlar Qashqadaryoning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va hudud taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish borasida muayyan natijalarga erishilayotganini ko‘rsatadi.

Bugun vohadagi qaysi sohaga nazar tashlamang, yangilanish va bunyodkorlikka guvoh bo‘lasiz. Qad rostlayotgan yangi korxonalar, barpo etilayotgan zamonaviy infratuzilma obyektlari, xizmat ko‘rsatish sohasidagi izchil o‘zgarishlar va obodonlashtirish ishlari Qashqadaryoning qiyofasini tobora yangilamoqda. Eng muhimi, bu o‘zgarishlar nafaqat mahalliy aholida mamnuniyat uyg‘otmoqda, balki vohaga kelayotgan mehmonlarda ham katta taassurot qoldirmoqda.

“Qashqadaryo” erkin iqtisodiy zonasida faoliyat yuritayotgan “Sulton Tex Group” to‘qimachilik klasterining zamonaviy fabrikasi ana shunday bunyodkorlik va sanoat taraqqiyotining yorqin namunasidir. Mazkur korxona viloyatning sanoat salohiyatini yuksaltirish, iqtisodiyotga investitsiyalar jalb etish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlashga xizmat qilayotgan yirik loyihalardan.

Umumiy qiymati 54 million dollarlik loyiha doirasida yiliga 20 ming tonna mato ishlab chiqarish va bo‘yash quvvatiga ega zamonaviy ishlab chiqarish liniyalari ishga tushirildi. E’tiborlisi, fabrika faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida 840 ta yangi ish o‘rni tashkil etilib, aholi uchun munosib daromad manbai va yangi mehnat imkoniyatlari yaratildi.



Korxonada resurs tejamkorligini ta’minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan ishlar ham izchil davom ettirilmoqda. Xususan, qiymati 3 million dollar bo‘lgan zamonaviy yopiq suv aylanish tizimining joriy etilgani bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tizim ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan suvning 95 foizdan ortig‘ini tozalab, qayta ishlatish imkonini beradi. Natijada har yili 1,1 million kub metr suv tejaladi.

Prezidentimiz Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida ushbu fabrikadagi ishlab chiqarish jarayoni va mahsulotlar ko‘rgazmasi bilan tanishdi. Korxonadagi ilg‘or tajribalarni keng ommalashtirish sanoatda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tabiiy resurslarni asrash va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Qarshi shahrida faoliyat yuritayotgan “FM World” korxonasi ham xalqaro hamkorlikning samarali namunasidir. Mazkur korxona Xitoyning 500 ta yirik xususiy korxonasi qatoridan joy olgan “Jiangsu World Group” korporatsiyasi tarkibiga kiradi. Bu esa viloyatda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va hududning sanoat salohiyatini yanada oshirish uchun muhim imkoniyatlar eshigini ochadi.

Ayni paytda korxonada “Nasaf” brendi ostida besh xil rusumdagi traktorlar, paxta terish mashinalari va boshqa qishloq xo‘jaligi texnikalari yig‘ilmoqda. Traktorlar GPS, avtopilot, o‘g‘itlashni boshqarish va masofadan nazorat qilish tizimlari bilan jihozlangan. Bu dala ishlarini aniq bajarish, yonilg‘i va boshqa resurslar sarfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning viloyatga tashrifi doirasida bo‘lib o‘tgan yangi loyihalarni ishga tushirish va qurilishiga start berish marosimi ham tom ma’noda vohada kechayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari, yangi iqtisodiy imkoniyatlar va istiqbolli tashabbuslarning yana bir yorqin ifodasi bo‘ldi.

Marosimda jami 69 ta loyiha ishga tushirilib, yana 92 ta loyiha qurilishiga start berildi. Ushbu tashabbuslar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, yangi ish o‘rinlarini ochish hamda hududning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. E’tiborlisi, har bir loyiha zamirida odamlar hayotini yaxshilash, aholi daromadini oshirish va Qashqadaryoning taraqqiyot salohiyatini yangi bosqichga olib chiqishdek ezgu maqsadlar mujassam.

Viloyatda sanoat salohiyatini yuksaltirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish va aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlar ham izchil davom etmoqda. Ayni paytda ishga tushirilayotgan 28 ta sanoat korxonasida 7000 ga yaqin doimiy ish o‘rni ochilmoqda. Bu esa minglab oilalar uchun barqaror daromad manbai, insonlar uchun esa o‘z mehnati va salohiyatini namoyon etish imkoniyati demakdir.

Qashqadaryoda xorij brendlari ishtirokidagi ishlab chiqarish loyihalari ham kengaymoqda. Jumladan, Italiyaning mashhur “Cotonella” brendi ostida yiliga 8,5 million dona tayyor trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu nafaqat mahalliy sanoatning eksport salohiyatini oshirish, balki milliy mahsulotlarimizning xalqaro bozorlardan munosib o‘rin egallashi uchun ham yangi imkoniyatlar ochadi.

Har oyning oxirgi haftasida viloyat hududlarida bo‘lib, saylovchilar bilan uchrashamiz, ularning taklif va tashabbuslari, orzu-intilishlari hamda muammolari bilan qiziqamiz. Har bir uchrashuv davomida hududlardagi o‘zgarishlar, odamlar hayotidagi yangilanishlarni ko‘rib, bu jarayonlarning mazmun-mohiyatini yanada teran anglaymiz.

Bir vaqtlar ish izlab, oilasi va yaqinlaridan uzoqqa ketishga majbur bo‘lgan yoshlar bugun o‘z mahallasida mehnat qilib, daromad topmoqda. Oilasi bag‘rida yashab, kelajagini shu zaminda qurmoqda. Bu esa joylarda yaratilayotgan imkoniyatlar, aholi bandligini ta’minlash va inson manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan sa’y-harakatlarning amaliy ifodasidir. Ayting, yoshlarning o‘z yurtida munosib ish va daromad manbaiga ega bo‘lib, oilasi davrasida farovon hayot kechirayotganini ko‘rishdan ortiq quvonch bormi?!

Prezidentimizning viloyatga tashrifi Qashqadaryoning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab bergani, aholi farovonligi yo‘lidagi bunyodkorlik ishlarini izchil davom ettirishga zamin yaratgani bilan g‘oyat ahamiyatli.

NIYATIM – MAHSULOTLARIMIZNI DUNYOGA TANITISH

Qashqadaryo deganda ko‘pchilikning ko‘z o‘ngiga, avvalo, uning keng dalalari, dehqonchilik va chorvachilik an’analari keladi. Aslida, viloyatning iqtisodiy imkoniyatlari cheksiz. Bugun bu yerda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini zamonaviy texnologiyalar asosida qayta ishlab, jahon bozoriga olib chiqish uchun ham katta salohiyat mavjud. “Wosune Food Ingredients Karshi” korxonasi ana shu imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida tashkil etilgan.



Sardor ISOMOV,
“Wosune Food Ingredients Karshi” korxonasi ish yurituvchisi

Korxonamiz AQSH investitsiyalari ishtirokida barpo etilgan bo‘lib, bugunga qadar loyihaga 8,5 million dollar miqdorida sarmoya kiritildi. Eng muhimi, bu mablag‘ evaziga ishlab chiqarish quvvatlari yaratilib, 150 kishi doimiy ish bilan ta’minlandi.

Korxonamiz, asosan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Bu yerda sabzi, bulg‘or qalampiri, ko‘k piyoz, ismaloq va turli ko‘katlar konveksion uskunalarda quritiladi. Ushbu texnologiya mahsulotning tabiiy ta’mi va ozuqaviy xususiyatlarini saqlashga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish jarayonining 30 foizi robotlashtirilgan.

Tayyor ingrediyentlar tez tayyorlanadigan taomlar, ziravorlar, konservalar va kosmetika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kompaniyalarga yetkazib beriladi. Mahsulotlarimiz Yevropa va MDH davlatlariga eksport qilinmoqda.

Korxonamizda qayta ishlanadigan meva-sabzavotlar Qashqadaryoda yetishtiriladi. Hozirgi kunda asosiy e’tiborimiz Amerika bozoriga qaratilgan. Korxonamiz AQSH sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgani tufayli ushbu mamlakatdagi xaridorlar bilan aloqalarimiz mavjud. Shu bilan birga, Yevropadan ham qator salohiyatli xaridorlar korxonamizga kelib, ishlab chiqarish imkoniyatlarimiz bilan yaqindan tanishdi. Bu uchrashuvlar kelgusida eksport hamkorligini yo‘lga qo‘yish va kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Albatta, xalqaro bozorga chiqishning o‘zi yetarli emas. U yerda o‘z o‘rnimizni topish, xaridor ishonchini qozonish va barqaror hamkorlikni ta’minlash muhim. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ishlaganda sifat, xavfsizlik, mahsulotning tegishli talablarga javob berishi va yetkazib berishdagi intizom hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli biz ishlab chiqarishni kengaytirish bilan birga tashqi bozor talablarini ham doimiy o‘rganib borishimiz zarur.

Hozir korxonamiz loyihasining birinchi bosqichi ishga tushirilgan. Oldimizda ikkinchi bosqichni amalga oshirish vazifasi turibdi. Rejamizga ko‘ra, ushbu bosqich ham ishga tushirilgach, korxonaga kiritilgan investitsiyaning umumiy hajmi 15 million dollarga yetadi. Bu ishlab chiqarish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ko‘proq mahalliy xomashyoni qayta ishlash va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusi ikki yil davomida Qashqadaryo viloyatining qishloq xo‘jaligi va uni qayta ishlash sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan, umumiy qiymati 40 million dollar bo‘lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadlarimiz bor. Uni ro‘yobga chiqarish uchun yangi hamkorlik aloqalari, bozor talablarini chuqur o‘rganish va ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish talab etiladi.

Asosiy maqsadimiz — Qashqadaryoda yetishtirilgan mahsulotlarning xorijda ham o‘z xaridoriga ega bo‘lishiga erishish. Kelajakda AQSH yoki Yevropa bozorida korxonamiz brendi ostidagi mahsulotni ko‘rgan xaridor uning ortida O‘zbekiston, xususan, Qashqadaryo dehqonlari va ishlab chiqaruvchilari mehnati turganini bilishini istaymiz.

Zero, viloyatimiz salohiyatini namoyon etishning eng yaxshi yo‘llaridan biri uning zaminida yetishtirilgan hosilni raqobatbardosh, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirib, dunyo bozoriga olib chiqishdir.

PREZIDENTIMGA BERGAN VA’DAMNI BAJARAMAN

Bundan to‘rt-besh yil oldin kutilmaganda sog‘lig‘imda muammo paydo bo‘ldi. Sog‘lom yurgan kishi bexosdan dardga yo‘liqsa, og‘ir kecharkan. Qancha harakat qilmayin, baribir salomatligimni to‘liq tiklashning imkoni bo‘lmadi. Natijada ikkinchi guruh nogironi bo‘lib qoldim.



Ma’rifat IBRAGIMOVA,
kasanachi tadbirkor
Dehqonobod tumani

Ochig‘i, bu holatdan chiqib ketishim oson bo‘lmadi. Uyda o‘tirib, ahvolim yanada og‘irlasha boshlagandi. Shunda mahallamizga borib, menga biror ishda ko‘maklashishlarini iltimos qildim. Ular tashabbusimni qo‘llab-quvvatladi, kasanachilik bilan shug‘ullanishimga imkoniyat yaratadigan bo‘ldi. Dastlab o‘zim kabi imkoniyati cheklangan ikki ayolni ishga olib, kashtachilik, gilamchilikni yo‘lga qo‘ydim.

Vaqt o‘tishi bilan mahsulotlarimizga qiziquvchilar ko‘paydi. Bu esa ishchi kuchiga ehtiyojni yana oshirdi. Shu tariqa qishloq ayollarini ishga jalb etishni boshladim. Biz tomonlarda gilam to‘qish va kashta tikishni bilmaydigan ayolning o‘zi yo‘q. Ularga bu hunarni o‘qitish ham shart emas, aslida. Shu sabab ular uyda o‘tirib, kashta va gilam to‘qish orqali daromad topadigan bo‘ldi.

Ish bilan ovunib, asta-sekin dardni ham unuta boshladim, daromadim ortib bordi. Qo‘shimcha yo‘nalishlar qo‘shib, faoliyatimni kengaytirdim. Bugun ko‘rpa-yostiq, beshik anjomlari va milliy hunarmandlik bo‘yicha ishlayapmiz. Ellik xotin-qizning bandligini ta’minladim. Kelgusidagi maqsadlarim yanada katta.

Davlatimiz rahbari Qashqadaryoga tashrifi chog‘ida viloyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga bag‘ishlangan yig‘ilishda bir qator vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, Dehqonobod tumanida ham katta ishlar amalga oshadigan bo‘ldi.

Yig‘ilishda men ham so‘z olib, faoliyatim haqida gapirdim. Prezidentimizga kelgusida ish o‘rnini 100 taga yetkazishga va’da berdim. Davlatimiz rahbari mamnun bo‘ldi, ishlarimga rivoj tiladi. Bundan boshim ko‘kka yetdi. Shu kunning o‘zida ishga kirishdim.

Rejaga ko‘ra, qo‘shimcha ish o‘rinlari ochishga imkoniyatlarimiz bor. Xususan, hozir gilamchilik yo‘nalishi bo‘yicha eksport rejalashtirganmiz. Ayni paytda dastlabki bosqich ishlari amalga oshmoqda. Nasib etsa, kelgusi yildan mahsulotlarimizni xorijga sotishni boshlaymiz. Bu esa yana yangi ish o‘rni ochish zaruratini paydo qiladi. Demak, tez orada Prezidentimizga va’da qilganimdek, ishlovchilar soni 100 nafarga yetadi. Muhimi, olis qishloq ayollari bandligi ta’minlanadi. Ko‘plab oilalarga daromad, farovonlik kirib boradi.

CHEMPIONLARIMIZ SAFI ORTADI

Polvon yaxshi gapning shaydosi bo‘ladi. Agar bir maqtab qo‘ysangiz, undan yaxshi odam yo‘q. Murabbiylik qilayotganimga yigirma yil bo‘ldi. Yoshlarga dzyudodan saboq beraman. Davlatimiz rahbari bilan suhbatlashganim menga katta rag‘bat bo‘ldi. Kuchim bilagimga sig‘mayapti. Go‘yoki yosh yigitdek shashtim baland. Qo‘yib bersa, har qanday raqibni mag‘lubiyatga uchratishim aniq.



Otabek ALMARDONOV,
Qamashi tumanidagi 1-sport maktabi murabbiyi

O‘zim Chim mahallasida yashayman. Sport maktabimiz ham shu yerda joylashgan. Shu paytga qadar dzyudo bilan shug‘ullanishga sharoitlar yetarli emasdi. Moslashtirilgan binoda bir amallab mashg‘ulot o‘tkazib yurardik. Endi esa bari boshqacha.

Chim mahallasidagi katta o‘zgarishlar natijasida shu yerning o‘zida yangi sport zali bunyod etildi. Barcha imkoniyatlar mavjud. Hozir 50 dan ortiq yoshlar to‘garak a’zosi. Har kuni mahallani aylanib, yuguramiz. Turli mashg‘ulotlar o‘tkazamiz. Buni ko‘rib qiziquvchilar ko‘paydi. Ba’zilari “Biz ham shug‘ullansak bo‘ladimi?” deya so‘rashni boshladi. Hatto ular orasida katta yoshlilar bor.

Albatta, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish har bir kishi uchun muhim. Shu bois, boshqalarni ham sportga jalb etishni boshladik. Shunday sharoiti bor joyda shug‘ullanmasdan iloj ham yo‘q, aslida. Qishloq o‘rtasidagi shinam sport zali barcha uchun doim ochiq. Bundan tashqari, mahallamiz bugun go‘zal maskanga aylandi. Qancha aylansangiz, sayr qilsangiz, dilingiz yayraydi.

Yoshligimizda bunday sport majmualari qayda edi?! Faqat dalada shug‘ullanardik. Hozirgidek sharoit, sport kiyimlari haqida o‘ylab ham ko‘rmasdik. Musobaqalarga qatnashish tugul, borishning o‘zi muammo edi. Bugungi yoshlarga qancha havas qilsangiz oz.

Davlatimiz rahbari mahallamizga tashrifi davomida sport zalimizni ham ko‘zdan kechirdi. Shu paytda mashg‘ulot o‘tkazayotgandik. Biz bilan otalarcha mehribonlik bilan suhbatlashdi. Shart-sharoitlar haqida so‘radi. Shogirdlarim Xurshid va Aslbek bilan alohida muloqot qilib, ularga omad tiladi. Ikki yosh sportchimiz ham kelgusida jahon chempioni bo‘lishni va’da berdi. Umuman olganda, tarixiy ushbu tashrif mahallamizga, sport koshonamizga baraka, bizlarga so‘nmas shijoat, katta maqsadlar olib keldi.

Shu paytga qadar shogirdlarimning ko‘pchiligi turli musobaqalarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan. Endilikda ular safini kengaytirib, Chim mahallasidan jahon chempionlari yetishib chiqishiga bel bog‘ladim. Nasib etsa, bu haqda xushxabarlar tarqalishi shubhasiz.

Jamiyat oldiga Uchinchi Renessansni bunyod etish g‘oyasi qo‘yilgan, bu yo‘lda olamshumul islohotlar va ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotgan, ilm-u ma’rifatda, adabiyot, san’at va sportda beqiyos yutuqlar qo‘lga kiritilayotgan bugungi kunda ana shu tuyg‘u — Vatan va xalq sevgisi suv va havoday zarur.











Munosabat

EL SHOD BO‘LSA, MAMLAKAT OBOD BO‘LAR



Nurboy JABBOROV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti prorektori, filologiya fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Ma’rifat buloqlarining ochilishi

Qashqadaryo azaldan ilmu urfon maskani bo‘lib kelgan. Vohadan dunyo ilm-fani takomiliga beqiyos hissa qo‘shgan yuzlab Nasafiy, Keshiy, Kasbaviy, Pazdaviy nisbali allomalar yetishib chiqqani ham buni tasdiqlaydi. Lekin, afsuslar bo‘lsinki, avval chorizm, so‘ng sho‘rolar mustamlakasi davrida, keyinchalik esa ana shu mafkura ta’siri to‘liq barham topmagani oqibatida ushbu allomalar merosi yetarli darajada o‘rganilmay keldi. Ular orasida eng ulug‘ mutafakkirlardan biri Abul Muin Nasafiy merosi Prezidentimizning alohida e’tibor va tashabbusi tufayli chuqur tadqiq qilina boshladi.

Vohaga kechagi tashrifi davomida davlatimiz rahbari Qashqadaryo farzandi, yangi zamon o‘zbek she’riyatida maktab yaratgan ulug‘ shoir, O‘zbekiston Qahramoni, davlatimiz madhiyasi muallifi Abdulla Oripov nomini yodga oldi.

“Til bayrami nishonlanayotgan kunda Abdulla Oripovni eslashimiz tabiiy. “O‘zbekiston — Vatanim manim” degan she’rining ahamiyati katta. Har safar ziyolilar bilan uchrashsam: “Menga Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva yetishmayapti”, deb qayta-qayta takrorlayman. Uchovlari bilan ham sirdosh bo‘lganman. Sirdosh deganimning sababi shuki, masalan, Erkin Vohidov bilan kunduzi uchrashish mumkin emas edi. Kechasi statsionarga borib, piyoda yurib, suhbatlashardik. Boshqa joylarda ham uchrashardik.

Eshitgan bo‘lsangiz kerak, Abdulla Oripov bilan birgalikda Zomin seminarini tashkil qilganmiz. Hech kim topshiriq bermagan: sharoit ham, imkoniyat ham yo‘q edi. Vagon qo‘yib, yosh ijodkorlarni yig‘ib, seminar o‘tkazganmiz. Hozir shunday zamon keldiki, tilimizga bo‘lgan e’tiborimizni hamda millatimiz va o‘zligimizga bo‘lgan ehtiromimizni ochiq bildiryapmiz”, dedi davlatimiz rahbari.

Darhaqiqat, Prezidentimiz buyuk shoirimiz Abdulla Oripovni har doim e’zozlagan, unga munosib hurmat bajo keltirgan. Ustoz ijodkor davlat tadbirlariga taklif etilmay, yolg‘izlatib qo‘yilganda ham o‘sha kezlari Bosh vazir bo‘lgan Shavkat Miromonovich muntazam xabar olib turgan. O‘zaro suhbatlarimizda ustoz buni har doim minnatdorlik bilan eslar edi. Shoir vafotidan keyin Prezidentimiz Qarshi shahrida Abdulla Oripov maktabini tashkil etish orqali, birinchidan, qadrdon do‘stiga yuksak ehtiromini bildirgan bo‘lsa, ikkinchidan, ijodkor yoshlarga qanot bag‘ishladi. Bu maktabga kirib o‘qishni har bir o‘quvchi havas qiladi. Natijada qashqadaryolik yoshlarning ijodiy-intellektual salohiyati tobora oshib bormoqda. Ijod maktabi o‘quvchilari “Zakovat” turnirida g‘olib bo‘lgani ularga yaratilgan sharoitlar natijasidir.

Viloyatga tashrifi davomida Prezidentimiz “Kitobxon oila” tanlovi g‘olibi Rashidovlar oilasiga Toshkent shahridan ikki xonali uy kalitini topshirdi. Bu orqali kelajakda ularning farzandlari poytaxtda o‘z uyida yashab o‘qishi uchun munosib sharoit yaratilishini alohida ta’kidladi. Bu yosh oilaning naqadar quvonganiga butun xalqimiz guvoh bo‘ldi. Shuningdek, davlatimiz rahbari yosh, g‘ayratli yozuvchi Javlon Jovliyevning ijodiga yuqori baho berib, unga ham Toshkent shahridan ikki xonali uy tuhfa qildi. Prezidentimizning hayratga loyiq fazilatlaridan biri iste’dodli yoshlarga otalarcha mehr ko‘rsatishi, ularga yangi ijodiy va ilmiy g‘oyalarni amalga oshirishlari uchun rag‘bat berishi, ilhom va zavq-shavq ulashishidir. Mamlakatimiz yoshlari bundan kuch olayotir. Iste’dodi va halol mehnati bilan orzulariga erishmog‘i mumkin ekanini chuqur his etayotir. Vatanga va xalqqa muhabbat, kitobga bo‘lgan qiziqish burch bo‘lishdan tashqari munosib taqdirlanishiga ham guvoh bo‘lmoqdalar.

Ana shunday rag‘bat va intilish tufayli Qarshi shahridagi Prezident maktabi “Cambridge” imtihonlarida respublika miqyosida eng yuqori natijaga erishdi.



Kosonlik Murodjon Halimov SAT imtihonida maksimal 1600 ball to‘plagani yangi O‘zbekiston yoshlarining kelajagi porloq ekanidan dalolat beradi.

Butun mamlakatimiz yoshlari qatori qashqadaryolik navqiron avlodning xorijiy tillarni hamda zamonaviy texnika-texnologiyani mukammal egallashi masalasi ham davlatimiz rahbarining alohida e’tiborida. Kelasi yildan viloyatning har bir tumanida bittadan maktabda aniq fanlar chet tilida o‘qitilishi, bundan tashqari, barcha tumanlarda robototexnika to‘garaklari ochilib, o‘quvchilar o‘rtasida har yili chempionat o‘tkazilishi belgilangani yoshlarning ilmga intilishini yanada kuchaytirishi aniq.

Prezidentimiz Qarshi shahridagi Ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi yoshlar hayotida muhim o‘rin tutayotganiga alohida diqqat qaratdi. Texnikumning 32 nafar ustasi yaqinda Germaniyada malaka oshirib kelgani va hozir viloyatdagi 57 ta texnikum ustalariga o‘z bilim va tajribalarini o‘rgatayotgani, ayniqsa, ahamiyatlidir. Germaniyalik o‘qituvchilar har yili 1,5 ming o‘quvchiga nemis tili va kasb o‘rgatmoqda.

— Yoshlarimizning ertaga bilimli, ishli, kasb-hunarli bo‘lishi muhim, — dedi davlatimiz rahbari muloqot chog‘ida. — Germaniyaga borganimda xursand bo‘ldim. Bilasizlarmi, bu kichkina masala emas. Agar bolalarimiz kasbni mukammal egallasa, u yerda uch, hatto besh ming yevrogacha oylik beramiz deyishyapti. Mayli, pul ham kerakdir. Lekin eng asosiysi, ularning ongi, dunyoqarashi o‘zgarib keladi. “Musofir bo‘lmagan musulmon bo‘lmas”, deganlaridek, Vataniga bo‘lgan hurmati, ehtiromi, muhabbati oshadi. Ota-onasi, guzari, qishlog‘i va xonadoniga mehri ortadi. Bilimli bo‘lib keladi. Kelgandan keyin qayerda ishlaydi? Qashqadaryoda, O‘zbekistonda ishlaydi-ku. Bilim uchun, kasb uchun qancha mablag‘ kerak bo‘lsa, ayamaymiz. Sizlar hayotda to‘g‘ri yo‘l topib, daromad topib, oilani boqib, kelajakda farovon yashashlaringiz uchun bu markazlarni tuzdik. Bir daqiqa ham vaqtingiz bekor o‘tmasin. Bilinglar, har biringizning kelajakdagi hayotingiz o‘zingizga bog‘liq.

Prezidentimiz mutasaddilarga tumanlardagi maktab o‘quvchilarini Ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi va yangicha metodika asosida ishlayotgan 57 ta texnikumga jalb qilishning aniq yo‘nalishlarini ishlab chiqish topshirig‘ini berdi.

Qarshi davlat universitetiga tashrifi chog‘ida davlatimiz rahbari bu oliy o‘quv yurtini ilm-fan va ta’lim-tarbiya yuqori darajada integratsiyalashgan maskanga aylantirish masalasiga alohida e’tibor qaratdi.

Yuksalayotgan inson qadri

Har qanday davlatning taraqqiyot darajasi fuqarolar osoyishi va ular turmushining farovonligiga ko‘ra belgilanadi. Hazrat Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida el shod, mamlakat obod bo‘lishining asosi adolatda ekani haqida mana bunday yozgan edi:

Shahekim anga adl bunyod o‘lur,
Natija bukim, mulki obod o‘lur.

Chu mulk o‘ldi obodu xalqi g‘ani,
Yaqindurki, ma’mur o‘lur maxzani.

Ya’ni hukmdor agar adolatni ta’minlasa, mamlakat obod bo‘ladi. Mamlakatning obod bo‘lishi, o‘z navbatida, xalqning boy yashashini ta’minlaydi. Mamlakat obod bo‘lib, xalqning turmush farovonligi oshsa, bu hol, o‘z navbatida, davlat xazinasi boyishiga olib keladi. Demak, mutafakkir bobomiz fikricha, el shodligi va mamlakat obodligi, birinchi navbatda, adolatga bog‘liq. Prezidentimiz ham masalaning ayni shu jihatiga jiddiy e’tibor qaratib kelmoqda. Adolat ustuvorligi va inson qadri — islohotlarimizning pirovard maqsadi etib belgilangani buning dalilidir.

Prezidentimizning Qamashi tumanidagi Chim mahallasiga tashrifi natijasida qanchadan qancha ko‘ngillar obod bo‘lganini ko‘rdik. Qishloqdagi besh yarim ming aholining qariyb yarmi yoshlar ekaniga guvoh bo‘lgan mamlakatimiz yetakchisi mahalla markazidagi o‘yingohda bolalar va ularning onalari bilan suhbatlashdi. Yoshlar kutubxonasida kitobxon yigit-qizlarning kelajakdagi orzu-o‘ylari bilan qiziqdi. O‘zlikni asrash, ajdodlardan meros ilmiy va badiiy adabiyotlarni o‘rganish, yoshlarda ijodiy tafakkurni o‘stirish kabi masalalarga alohida diqqat qaratdi.

— Bugun tilimizga, millatimizga va o‘zligimizga bo‘lgan ehtirom tobora yuksalmoqda. Odamlar yana kitob o‘qishga intilyapti. Ota-bobolarimizdan qolgan ma’naviy merosni qayta tiklayapmiz. Qamashining Chim mahallasida ham shunday ma’naviy muhit, shunday sharoitlar yaratilmoqda, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz oliy ta’lim yorug‘ kelajagimiz va taraqqiyotimizning asosi ekaniga alohida diqqat qaratdi. “Ilgari yoshlarimizning 100 nafaridan atigi 9 nafari oliy ta’limda o‘qigan bo‘lsa, bugun 45 nafari o‘qiyapti, — dedi mamlakatimiz yetakchisi. — Oliygohlarni tashkil etish, professor-o‘qituvchilarga sharoit yaratish katta mehnat talab qiladi. Lekin O‘zbekistonning kelajagi uchun milliy g‘ururi bor, Vatanni sevadigan kadrlar kerak. Men sizlarga ishonaman. Jonajon Vatanimiz, Qashqadaryo vohasining kelajagi sizlarning qo‘lingizda”.

Mamlakatimizning qaysi hududiga tashrif buyurmasin, davlatimiz rahbari yangidan yangi g‘oyalar, ezgu tashabbuslar bilan boradi. Yangi Qarshi shahrini bunyod etish g‘oyasi buning yana bir isbotidir. Shahar Samarqand — G‘uzor hamda Shahrisabzga olib boruvchi avtomobil yo‘llari oralig‘idagi 5200 gektar foydalanilmayotgan cho‘l va yaylovdan iborat yer maydonida qurilishi mo‘ljallangani e’tiborga molik. Yangi shaharda dastlab 500 ming, kelajakda 1 million aholi yashashi rejalashtirilgan bo‘lib, Qarshiga zamonaviy muqobil bo‘ladigan yirik markaz bo‘lishi kutilmoqda. Unga viloyatning boshqaruv idoralari ko‘chirilib, kongress-xoll, konsert zallari va mehmonxonalar barpo etilishi, yirik xalqaro forumlarni o‘tkazish mumkin bo‘lgan turizm markaziga aylanishi rejalashtirilgani tahsinga loyiq. Prezidentimiz aeroport va temir yo‘l vokzalini yangi shahar bilan tutashtiradigan elektr jamoat transporti, zarur bo‘lsa, yer usti metro qatnovini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ko‘rsatma bergani loyihaning nechog‘liq puxta va uzoqni o‘ylab tuzilganidan dalolat beradi. Davlatimiz rahbarining so‘zlarini tinglar ekanman, ko‘z o‘ngimda yangi O‘zbekistonga munosib muhtasham Yangi Qarshi shahri yaqqol namoyon bo‘ldi.

Vatanni sevish kerak

Vatanparvarlikni, ona xalqimizning hayoti to‘kis, ko‘ngli obod bo‘lishi yo‘lida fidoyilikni Prezidentimizdan o‘rganishimiz kerak. To‘g‘risi, davlatimiz rahbarining Qashqadaryoga tashrifi jarayonlarini ommaviy axborot vositalaridan katta qiziqish va hayajon bilan kuzatar ekanman, hayratlandim. To‘qimachilik va og‘ir sanoatdan paxtachilik va bog‘dorchilikkacha, mahalladan ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarigacha, shaharu qishloqlar infratuzilmasini zamonaviylashtirishdan yo‘l-magistrallar barpo etishgacha — bu qadar katta ko‘lamli ishlar hali birgina viloyat misolida rejalashtirilmoqda. Boshqa viloyatlarda ham aynan shunday miqyosda ahamiyatli loyihalar amalga oshirilayotganiga guvoh bo‘lyapmiz. Bunchalik ulkan ko‘lamdagi islohotlar va bunyodkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularni boshqarish, rahbarlardan tortib, oddiy aholigacha, ilm-u ijod ahlidan o‘quvchi va talaba yoshlargacha — barchaga kayfiyat va ruh berish, Vatan va millat yo‘lidagi katta ishlarga rag‘bat uyg‘otish oson emas. Bunday ishlarga g‘ayrat va shijoat topish uchun vatanparvar, xalqparvar bo‘lib tug‘ilish kerak. Prezidentimiz ana shu fazilatlarga ega ekani barchamiz uchun o‘rnakdir. Yodimda muhrlangan bir voqea: 2023-yili Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida yoshlardan biri Prezidentimizga: “Hurmatli Prezident, Siz qorong‘i kechadan yorug‘ tonggacha Vatan va xalq xizmatidasiz. Tinim bilmaysiz. Bunchalik g‘ayrat va shijoatni qayerdan olasiz?” deb savol bergan edi. “Buning yo‘li oddiy, — deb javob berdi davlatimiz rahbari. — Vatanni, xalqni sevish kerak!”.

Jamiyat oldiga Uchinchi Renessansni bunyod etish g‘oyasi qo‘yilgan, bu yo‘lda olamshumul islohotlar va ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotgan, ilmu ma’rifatda, adabiyot, san’at va sportda beqiyos yutuqlar qo‘lga kiritilayotgan bugungi kunda ana shu tuyg‘u — Vatan va xalq sevgisi suv va havoday zarur. Ushbu yoniq tuyg‘uni yoshlarimiz qalbiga va tafakkuriga chuqurroq singdirish barchamizning burchimizdir.

Dil izhori

BU E’TIBOR – KITOB, MUTOLAA E’TIROFI

Yozuvchilikni tanlagan odam bu yo‘lning mashaqqatini ham qabul qiladi. Chunki adabiyotda qilingan mehnatning natijasini oldindan hisoblab bo‘lmaydi. Bir asar ustida yillab ishlashingiz mumkin, ammo uning kitobxonga qanday ta’sir qilishi, qaysi avlod uni qanday qabul qilishini vaqt ko‘rsatadi.



Javlon JOVLIYEV,
“Mutolaa” loyihasi muharriri, yozuvchi

Prezidentimizning Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida Qamashida bo‘lib o‘tgan uchrashuv ana shu haqiqat haqida yana bir bor o‘ylashimga sabab bo‘ldi. Davlatimiz rahbari ijodiy faoliyatimni e’tirof etib, Toshkent shahridan ikki xonali xonadon ajratish bo‘yicha topshiriq berdi. Buni, avvalo, oilam hayotidagi katta quvonch, o‘zim uchun esa kutilmagan va qadrli e’tibor sifatida qabul qildim. Mazkur voqeaning men uchun ahamiyati faqat shu bilan cheklanmaydi. Bu ijodkor mehnati, jamiyatdagi o‘rni va bugungi adabiyotimiz oldida turgan vazifalari haqida jiddiyroq mulohaza yuritishga undadi.

Qamashi tumanining G‘ishtli qishlog‘ida tug‘ilib o‘sganman. Adabiyotga kirib kelishimda qishloq muhitining, o‘sha yerda ko‘rgan odamlarimning, ularning turmush tarzi va dunyoqarashining ta’siri katta. Qishloq hayotini faqat soddalik, samimiyat yoki tabiatga yaqinlik bilan tasvirlash to‘g‘ri emas. U yerda ham inson taqdiri, ijtimoiy munosabatlar, orzu va imkoniyatlar o‘rtasidagi munosabatlar bor. Bolaligimda kuzatgan ayrim holatlarning ma’nosini ancha keyin — adabiyot bilan jiddiy shug‘ullana boshlaganimda tushunganman.

Menimcha, yozuvchi uchun eng zarur xususiyatlardan biri — odatiy holdek ko‘rinadigan voqealar zamiridagi muammoni ko‘ra bilish. Adabiyot hayotni shunchaki tasvirlab bermasligi, insonni o‘zi ko‘nikib qolgan qarashlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur etishi kerak. Boisi, jamiyatdagi ko‘plab muammolar odamlar ularga ko‘nikib qolgani uchun ham uzoq yashaydi.

“Qo‘rqma” romanini yozish jarayonida meni eng ko‘p o‘ylantirgan masalalardan biri millatning tarixiy xotirasi bo‘lgan. O‘tgan asr boshida ilm olish, dunyoni tanish, o‘z xalqining taraqqiyotiga xizmat qilish niyatida xorijga ketgan yoshlar taqdiriga murojaat qilar ekanman, ularning hayotini faqat tarixiy voqea sifatida tasvirlashni istamadim. Meni ko‘proq boshqa savol qiziqtirdi: o‘sha avlodning orzu-intilishlari bilan bugungi yoshlarning maqsadlari o‘rtasida qanday uzviy bog‘liqlik bor? Ular o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarning qay biri bajarildi, qay biri hanuz dolzarb?

Shu ma’noda, adabiyotni faqat o‘tmishni ulug‘lash yoki bugungi yutuqlarni tasvirlash vositasiga aylantirib qo‘ymasligimiz lozim. Haqiqiy adabiyot insonning murakkab tabiatini, jamiyatdagi ziddiyatlarni, davrning og‘riqli savollarini ham ochib berishi shart. Yozuvchi voqelikka mustaqil nazar solgandagina asari o‘quvchiga yangi fikr, g‘oya bera oladi.

Ayni paytda adabiyotning ahamiyatini faqat kitoblarning adadi yoki sotuv ko‘rsatkichlari bilan baholash xato bo‘ladi. Asar ko‘p o‘qilishi mumkin, ammo bu uning badiiy jihatdan mukammalligini anglatmaydi. Aksincha, muayyan davrda keng ommalashmagan asar keyinchalik adabiyot taraqqiyotida muhim o‘rin tutishi mumkin. Shuning uchun bizga kitobxonlikni ommalashtirish bilan birga, badiiy didni tarbiyalash, adabiy tanqidni rivojlantirish,



asarlarni jiddiy muhokama qilish madaniyati ham zarur.

“Mutolaa” loyihasidagi faoliyatim davomida bu masalaning amaliy jihatlarini yanada yaqindan ko‘ryapman. Hozirgi yoshlar kitob o‘qimay qo‘ydi degan fikrni tez-tez eshitamiz. Ammo masalaga bunday yondashish, nazarimda, muammoni haddan tashqari soddalashtirishdir. Avvalo, yoshlarning axborot olish usullari o‘zgarganini tan olishimiz kerak. Kitob endi inson diqqatini tortish uchun ijtimoiy tarmoqlar, qisqa videolar, o‘yinlar va boshqa ko‘ngilochar vositalar bilan raqobatlashmoqda. Bunday sharoitda yoshlardan shunchaki ko‘proq kitob o‘qishni talab qilish bilan kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi.

Biz kitobni ularning hayotiga qanday olib kirayotganimiz, qanday asarlarni tavsiya qilayotganimiz, mutolaadan keyin qanday muloqot muhitini yaratayotganimiz haqida o‘ylashimiz kerak. Masalan, o‘quvchi kitobni tugatgach, paydo bo‘lgan savollarni kim bilan muhokama qiladi? U asar qahramonining qarorlariga qo‘shilmasa, o‘z fikrini erkin ayta oladimi? Maktabda adabiyot darsi faqat muallif tarjimai holi va asar mazmunini yodlashdan iborat bo‘lib qolmayaptimi? Menimcha, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda ana shu savollarga javob topish ham muhim.

Prezidentimiz “Yosh kitobxon oila” respublika tanlovi g‘oliblari Baxtishod Rashidov va E’zoza Xushvaqtovaga ham Toshkent shahridan ikki xonali xonadon ajratish bo‘yicha topshiriq berdi. Bu voqeada men, avvalo, intellektual mehnatning e’tirofini ko‘raman.

Odatda jamiyatda muvaffaqiyat deganda moddiy farovonlik, kasbiy martaba yoki tadbirkorlikda erishilgan natijalar ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Ilm olish, kitob o‘qish, o‘z ustida muntazam ishlash esa natijasi darhol ko‘rinmaydigan faoliyatdir. Holbuki, har qanday sohadagi jiddiy taraqqiyot zamirida bilim va tafakkur yotadi. Kitobxon oilaning yutug‘i davlat darajasida e’tirof etilishi bilimga sarflangan vaqt va mehnat ham qadrlanishini ko‘rsatadi.

E’tibor ijodkorning mas’uliyatini kamaytirmaydi, aksincha, oshiradi. Chunki adabiyotga bildirilgan ishonchning eng munosib javobi yangi va puxta asarlar bo‘lishi kerak. Yozuvchi o‘z oldiga qo‘ygan badiiy talablarini pasaytirmasligi, kitobxon bilan samimiy va halol muloqotni saqlab qolishi lozim.

Prezidentimizga ijodiy faoliyatimga e’tibori va oilamga bildirilgan g‘amxo‘rligi uchun samimiy minnatdorlik bildiraman. Bu men uchun katta rag‘bat, ayni paytda zimmamdagi vazifalarni yanada teran anglash imkoniyatidir.

Qashqadaryo viloyatidagi bunyodkorlik ishlari xalqimizning buyuk kelajakka ishonchini yanada mustahkamladi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot jamoli jilolanib, jilva qilayotgani Qashqadaryo kamolida ko‘rinayotir. Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 24-oktabr, 221-son

Iftixor

TARAQQIYOT JAMOLI — VOHANING KAMOLI



Rustam MUSURMON,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi,
Qoraqalpog‘iston xalq shoiri

O‘zbekiston Qahramoni, xalqimizning ardoqli shoiri Abdulla Oripov 1970-yilda yozgan “Qarshi qo‘shig‘i” sarlavhali she’rida:

Bu yerlarning bori shu: qip-qizil sahro bari,
Faqat sarob jimirlab chorlar sirli bazmga.
Uncha ham suluv emas sahroning jonzotlari,
Nasrga yarashmasa. yarashmaydi nazmga,

deya armon bilan yurak dardini izhor etgan, Vatanga muhabbatini betakror she’riy san’at bilan mag‘rur kuylagan edi. Biroq ustozning o‘sha she’rdagi “Bu joylar obod bo‘lar albatta erta-indin”, degan bashorati aynan bugungi islohotlar timsolida ro‘yobga chiqayotgani, qashqadaryoliklar hayotini misli ko‘rilmagan darajada o‘zgartirayotgani ayni haqiqat. Ulug‘ shoirning orzu-armoni ushalayotganiga amin bo‘lib turibmiz.

Oltmish yillar avvalgi tarixni eslasam, qo‘rqib uyg‘ongandek bo‘laman. O‘tgan asrning yetmishinchi yillarida Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi Yakkatut qishlog‘ida tug‘ilganman. Bolaligimiz maktab sinfxonalarida dars o‘qish, ilm olish emas, paxta dalasida mehnat qilish bilan o‘tgan. G‘o‘zalar qo‘sh quloq bo‘lib tuproqni yorib chiqqanidan paxta terimigacha, hatto ildizi bilan o‘rilgan g‘o‘zapoyalarni dastalab, g‘aram-g‘aram qilib traktorlarga ortib, tashib ketilgungacha bo‘lgan vaqt — erta bahordan qahraton qish boshlangungacha bo‘lgan faslda ota-onamiz bilan birga dalada mehnat qilar edik. Lekin kosamiz oqarmasdi.

Bugun Qashqadaryoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, viloyatning taraqqiyot yo‘liga chiqib borayotgani, bu yerga jahonning eng zamonaviy va ilg‘or texnologiyalari jalb etilayotgani, xorijiy investitsiyalar kirib kelayotgani shu yurtda tug‘ilib o‘sgan bir ijodkor sifatida menga nihoyatda ulkan faxr va iftixor bag‘ishlaydi. Prezidentimiz tashrifi doirasida Qashqadaryoda 69 ta loyiha ishga tushirilgani, yana 92 tasining qurilishi boshlangani xushxabaridan nihoyatda hayajonlandim.

21-oktabr — O‘zbek tili bayrami kuni amalga oshgan ushbu tarixiy tashrif doirasida misli ko‘rilmagan darajadagi bunyodkorlik ishlari boshlangani biz, ijodkorlar uchun qo‘shaloq bayram bo‘ldi. Ushbu qutlug‘ ayyom kuni ko‘zimiz davlatimiz rahbari qadami yetgan manzillardagi tarixiy tadbirlar yoritilayotgan oynai jahonda, internet tarmoqlarida, qulog‘imiz Qashqadaryoda, xayolimiz xalqimizning kelajakda benihoya taraqqiy etadigan hayotida bo‘ldi desam, mubolag‘a emas.

Qashqadaryo faollari bilan uchrashuvda davlatimiz rahbari so‘nggi besh yilda viloyatga 20 trillion so‘m yo‘naltirilib, 7 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilinganini qayd etdi. Xomashyoni chuqur qayta ishlashga qaratilgan minglab loyihalar ishga tushirildi, aholi jon boshiga daromad uch baravar oshdi. Prezidentimiz asosiy maqsad va e’tiborni mehnatkash xalqni boy qilishga qaratib, **“Endi yetishtirilgan mahsulotni viloyatning o‘zida chuqur qayta ishlab, voha aholisining munosib daromad topishiga sharoit yaratish kerak”,** dedi. Ayni shu maqsadni amalga oshirish uchun Qashqadaryoda umumiy qiymati 6 milliard dollardan ziyod bo‘lgan 161 ta loyiha tayyorlangani ta’kidlandi.

Koson, Mirishkor, Kasbi tumanlarida Italiyaning “Cotonella” brendi bilan hamkorlikda to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga, Nishon, G‘uzor tumanlarida Misr va Pokiston investorlari bilan hamkorlikda kartoshkachilik va chorvachilikni rivojlantirishga mo‘ljallangan loyihalar ishga tushirilmoqda.

Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga mo‘ljallangan loyihalar amalga oshirilayotgani nur ustiga nur bo‘ldi. AQSHlik hamkorlar ishtirokidagi “Wosune Food Ingredients Karshi” korxonasi 3,5 ming gektar maydonda yetishtiriladigan 100 ming tonna meva-sabzavotni qayta ishlashga ixtisoslashgan. Bu korxona 40 million dollarlik mahsulotini “Nestlé” va “Purina” kabi xalqaro brendlar uchun eksport qiladi.

Kitob tumanida Ozarbayjon bilan hamkorlikda oltin qazib olish loyihasi boshlangani, Shahrisabz tumanida esa rossiyalik investorlar bilan 300 million dollarlik dor yo‘li, mehmonxona va tog‘-chang‘i kurorti majmuasini tashkil etish ko‘zda tutilgani tabiat mo‘’jizasiga aylangan hududni naqadar o‘zgartirib yuborishini hayajon bilan tasavvur qila boshladim.

Prezidentimizning “2027-yil Qashqadaryoni zamonaviy sanoat va agro-texnologiyalar asosida rivojlantirish yili bo‘ladi”, degan so‘zlari qashqadaryoliklarga naqadar quvonch va shodlik, faxr-u iftixor bag‘ishlagan bo‘lsa, yurtdoshlarimiz zimmasiga shunchalik katta mas’uliyat ham yuklaganini teran his etdim.

Qashqadaryoda sho‘ro davrida faqat paxta yetishtirilardi. Hatto qush qanoti, odam oyog‘i kuyadigan cho‘llarga ham paxta ekilardi. Shahrisabz, Kitob tumanlaridagi bilim yurtlari muallimlari va o‘quvchilari paxta yig‘im-terimiga Muborak, Mirishkor cho‘llariga safarbar etilardi. Dehqonlar, traktorchilar, ishchilar karvoni cho‘l o‘zlashtirishga yo‘l olardi. Qishlog‘imizdan ham ancha-muncha oilalar cho‘l quvishga ko‘chib ketgan. Odamlar “oq oltin”ni besh million, olti million tonnaga yetkazamiz deb, kecha-yu kunduz paxta tergan. Hamqishlog‘imiz Husan amakining Xolbobo ismli o‘n olti yashar o‘g‘li paxta dalasida juvonmarg bo‘lgan. Tunda yarmigacha paxta ortilgan telejkaning ustida uxlab qolgan. Paxta terish mashinasida terilgan paxtani bilmasdan uning ustiga ag‘darib yuborishgan. Traktorchi paxta qabul qilish markaziga borib, telejkadagi yukni xirmonga ag‘darmaguncha hech kim ko‘rmagan. Paxta monokulturasi odamlarning sho‘rini quritganiga fojiali misollar ko‘p. Qashqadaryoda “paxta ishi” deb nohaq qatag‘on qilingan hamyurtlarimni eslasam, hanuz dilim og‘riydi.

Mustaqillik yillarida Kitob tumani bog‘dorchilikka ixtisoslashdi. Odamlar ota-bobosi ilgaridan qilib yurgan kasb bilan shug‘ullana boshladi. Kitob olmayu uzumlari, anori bilan mashhur. Dalada ekin ekasanmi yoki bog‘ yaratasanmi, texnika nihoyatda zarur. Qishloqda eng zo‘r kasb — traktorchilik. Traktorchiga hammaning ishi tushadi. Pomidor terasanmi, bug‘doy o‘rib, somon yig‘asanmi, doimo traktorga muhtoj bo‘lasan. Shuning uchun ikki yonimizdagi qo‘shnilarimiz oilasi bilan traktorchi. Traktorchilik yaxshi, birovning hojatini chiqarasan, yukini tashib berish, yerini haydash evaziga uch-to‘rt so‘m pul ishlaysan. Lekin o‘sha traktorchilarning azobini ham ko‘rganman.

Sho‘ro davridan qolgan eski traktor tez-tez buzilib qoladi. Qo‘shnilarim traktor ostidan chiqmaydi, usti-boshi moy, qorakuya. Ehtiyot qismlarni topish amrimahol. Solyarka topsa, avtol topmaydi, avtol topsa, motor ishdan chiqadi, g‘ildirakning rezinasi to‘zadi. Traktorni boshqasi shatakka olib, metall arqonda sudrab uyga olib keladi. Bir vaqtlar Amerikaning bahaybat traktorlari ham qishloq xo‘jaligiga joriy etildi. Baribir o‘zingnikiga yetmaydi-da!

Qarshi shahrida “Nasaf” brendi ostidagi traktorlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgani dehqon bilan bog‘bonning og‘irini yengil qiladigan bo‘ldi. Prezidentimiz Qarshi shahridagi “FM World” korxonasi faoliyati bilan tanishdi. Ushbu ishlab chiqarish inshooti Xitoyning “Jiangsu World Group” korporatsiyasi tarkibiga kiritilgan.

Besh gektarli, 12 ming kvadrat metr maydondagi hududda ishlab chiqarish binolari barpo etilgan. Unda 200 ta ish o‘rni yaratilib, ishlab chiqarishning ayrim jarayonlari avtomatlashtirilgan. “Nasaf” brendi ostida korxonada besh xil rusumdagi traktorlar, paxta terish mashinalari va boshqa qishloq xo‘jaligi texnikasi yig‘ilmoqda. Traktorlar GPS, avtopilot, o‘g‘itlashni boshqarish va masofadan nazorat qilish tizimlari bilan jihozlangan.


Traktorlarni yig‘ishda mahalliylashtirish darajasi 30 foizni tashkil etadi. Korxonaning o‘zida 138 turdagi detal va butlovchi qism ishlab chiqarilmoqda. Butlovchi qismlar ishlab chiqarishni kengaytirish va mahalliy korxonalar bilan kooperatsiyani kuchaytirish orqali mahalliylashtirish darajasini bosqichma-bosqich oshirish muhimligi qayd etildi.

Yillik eksport hajmini 50 million dollarga yetkazish, mahsulotlarning 30 foizini qo‘shni davlatlarga yetkazib berish rejalashtirilgan. Fermerlar uchun bunday texnika ishlab chiqarilayotgani, qulay imkoniyatlar yaratilayotgani amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlar samarasidir.

Mamlakatimizda badiiy adabiyotni rivojlantirishga, yozuvchilarni qo‘llab-quvvatlashga, ularning iste’dodini ro‘yobga chiqarishga yuksak e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz qaroriga binoan Qarshi shahrida O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi tashkil etilgani iste’dodli yoshlarga ko‘rsatilgan e’tibor va g‘amxo‘rlikning yuksak namunasidir. Tashrif davomida davlatimiz rahbari kitobxon yoshlar bilan uchrashib, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, iste’dodli yozuvchi Javlon Jovliyevga Toshkent shahridan ikki xonali xonadon ajratish haqida topshiriq bergani adabiyotimiz kelajagi yo‘lidagi otalarcha g‘amxo‘rlik va mehribonlikdir.

Badiiy adabiyotga qaratilayotgan e’tiborning samarasi o‘laroq, keyingi besh yil davomida 25 nomdan ziyod mualliflik kitoblarim O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida nashr etildi. Yuz jildli “Rus adabiyoti durdonalari”, yuz jildli “Turkiy adabiyot durdonalari” kitoblar turkumida tarjimalarim chop etildi. Jahon she’riyatining ulug‘ namoyandalari Shandor Petyofi, Ajiniyoz, Berdaq, Ibroyim Yusupov she’riy to‘plamlarini, O‘zbekiston xalq shoirlari Aleksandr Faynberg, Baxtiyor Genjamurodning she’riy to‘plamlari, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq yozuvchilari Kengesboy Karimov, Sharap Usnatdinov, O‘rozboy Abdurahmonov romanlarini o‘zbek tiliga tarjima qildim. “Bozbarak”, “Bir juft so‘z” she’riy kitoblarim davlat hisobidan, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida bosmadan chiqdi va oliy o‘quv yurtlari, maktablar, mahallalar kutubxonalariga beg‘araz tarqatildi. Yangi zamon sharofati bilan 2023-yilda e’lon qilingan she’riy tarjima bo‘yicha xalqaro tanlovda qatnashib, Vengriyada Shandor Petyofi nomidagi mukofot bilan taqdirlandim. Yozuvchi mehnati ro‘yobga chiqadigan oliyshon, oliymaqom, olijanob zamon keldi.

Qashqadaryo viloyatidagi bunyodkorlik ishlari xalqimizning buyuk kelajakka ishonchini yanada mustahkamladi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot jamoli jilolanib, jilva qilayotgani Qashqadaryo kamolida ko‘rinayotir. Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!



BUYUK UYG‘ONISH

Bobolarim hamisha davlat qurgan, bog‘ qilgan,
Pok iymon ne’matiga shukrin beadoq qilgan.
Shavkatli ajdodlardek shavkatli farzanding bor,
Elning ko‘nglini olib, dimog‘ini chog‘ qilgan.

Elning asl o‘g‘lonin poyqadami — gul, bahor,
Xalqimning halol rizqi — bu bug‘doyzor, paxtazor.
Yangi O‘zbekistonning mangu yashil bog‘lari,
Sohibqiron bog‘lari yanglig‘ yashnagan G‘uzor.

Cho‘llar chamanzor endi, kuylar yuragim — baxshi,
Ming shukr, kundan kunga davru makonlar yaxshi.
Oqsaroydan ko‘zini uzmay boqqan, ey jahon,
Munavvar kelajakning boshida — Yangi Qarshi!

Olam hamisha tashna bir pokiza xitobga,
Ko‘zlarni qamashtirgan Qamashida oftobga.
Shohona zarbof chopon — yurt egasi bergan uy —
Bu ulug‘ mehr shaksiz bir adibga, kitobga.

Bugun Buyuk Uyg‘onish — millatning istiqboli,
Istiqboliga chiqqay yayrab-yashnab iqboli.
Qashqadaryo, abadiy to‘lib oqar daryosan,
Dilbandlari yurtimning — umrimiz asal-boli.

Omon bo‘lsin xalqimning orzulagan mujdasi,
Qutlug‘ bo‘lsin yaxshining bu qadam ranjidasi.
Butun olamni xushbo‘y iforga to‘ldirgaydir
Yangi O‘zbekistonning hayotbaxsh shabadasi!

G‘ayrat MAJID

Ko‘hna yurt qo‘shig‘i

Qur’on ko‘chirmoq uchun yo‘ndi qamish xomalar,
Arabiy imlo bilan bitdi ilmiy nomalar,
Ota-bobosi Keshiy, Nasafiy allomalar,
Dunyolarni uyg‘otdi Birinchi Renessans.

Mo‘r-malax kabi qo‘shin tortganda yovuz xoqon
Shaharlar vayron bo‘ldi, zulmatga cho‘mdi jahon,
Qashqadaryodan quyosh porladi — Sohibqiron,
Dunyoga nur taratdi Ikkinchi Renessans.

Ali Qushchi — Ulug‘bek shogirdi amirzoda,
Navoiy ham, Bobur ham mirzo — temuriyzoda,
Avliyolar duosi birla ko‘ngil ozoda,
Yurtni obod ayladi Uyg‘onish — Renessans.

Qarshida ham erk uchun jon bergandir shahidlar,
Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi mullo jadidlar,
Yurt uchun, Vatan uchun uvol bo‘lgan yigitlar,
O‘zbekiston bayrog‘i Uyg‘onish — Renessans.

Yulduzlarni kashf aylar Kitobda rasadxona,
Sayyoralar xat yo‘llar Maydanakka pinhona,
Abdulla Orif hamon she’r o‘qir dona-dona,
Ozodlik, Mustaqillik, Uyg‘onish — Renessans.

Yoshlar millatni sevgan ajdodlarning zurriyoti,
Navqiron bunyodkorlar Amir Temur avlodi,
Albat ijobat bo‘lgay xalqimizning murodi,
Orzumiz, maqsadimiz Uyg‘onish — Renessans.

Har sohada cho‘ng xirmon, har boshoqda oltin don,
Yer yuziga tushgandek bamisoli kahkashon,
Jahonda oltin uzuk Qarshi, Muborak, Nishon,
Xalqimning saodati Uyg‘onish — Renessans.

Prezident bel bog‘ladi, xalqimiz kamarbasta,
Buyuk tariximizga zamonamiz vobasta,
Farzandlar ulg‘aymoqda, kelajagimiz rasta,
Dunyolarni uyg‘otar Uchinchi Renessans.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
29213 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.